

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida
UDK 811.512.133:81.373/82-32

TOJIYEVA GULNORA YUSUPOVNING
SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARINING LINGVOPOETIK
TAHLILI

70230101- Lingvistika: o'zbek tili mutaxassisligi

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

PhD. A. Shukurov

Termiz – 2023

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining
2022-yil 24-yanvardagi №2-T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.**




Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (16- raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43-uy).

Ilmiy rahbar:  f.f.f.d. PhD A. A. Shukurov
Kafedra mudir:  f.f.f.d. PhD N. R. Amonturdiyev
Magistratura bo'limi boshlig'i:  f.f.f.d. PhD A. B. Narbayev



TADQIQOTNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik sharofati bilan O‘zbekiston ahli o‘zligini anglash ming yillik tarixini an‘analarini, madaniyatini, urf-odatlarini tiklash baxtiga ega bo‘ldi. Xalqimizning asriy orzulari, ozodlik deb jonini fido qilgan o‘zbek ziyolilarining maqsadlari ro‘yobga chiqdi. Tilimizga davlat tili maqomi berilib, tarbiya va maorif sohalari ham yuksak talablarga javob bera oladigan yangi bir tizimni tashkil etdi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e‘tibor berila boshlandi.

Ta‘limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta‘limdan ajratib bo‘lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Bu xaqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma‘noli so‘zlarni eslayman. Buyuk ma‘rifatparvar bobomizning bu so‘zlari o‘tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o‘z ma‘ruzalarida quyidagilarni ta‘kidlaydilar¹.

“Bugungi kunda O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi yuksak bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o‘z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo‘ydik. Bu ulug‘ maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo‘lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligini biz yaxshi anglaymiz.

Ayni shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotni xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarni belgilab olish, o‘ylaymanki, katta ahamiyatga ega.”

¹ Xalq so‘zi gazetasi. 26.04. 2018. Toshkent shahri, Matbuotlar ko‘chasi 32-uy.

Prezidentimizning ushbu fikrlaridan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash joizki, fuqarolik jamiyatini asosini mustahkamlashda badiiy adabiyotning ham muhim o‘rni bor. Zero, badiiy adabiyot yosh avlodni, shuningdek, ommani insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi muhim manbalardan hisoblanadi.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida badiiy adabiyot tili bilan aloqador talaygina ishlar yuzaga kelmoqda². Biroq hali bu borada qilinishi lozim bo‘lgan ishlarni yanada jonlantirishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz. Chunki hanuzgacha ko‘plab ijodkorlarimizning badiiy til imkoniyatlari borasida fikrlar yuritish tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib kelmoqda. Shuning uchun ham badiiy asar tilini imkon doirasida o‘rganish muhim va dolzarbdir. Xususan, o‘zbek adabiyotida o‘zining betakror ovozigacha, so‘ziga ega bo‘lgan³ ijodini ko‘proq o‘rganish va tadqiq etish muhimdir.

Zero, o‘zbek adabiyoti va adabiy tilimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan ulkan adibimiz Shukur Xolmirzayev ijodini har qancha o‘rgansak, kamlik qiladi. Shu maqsadda mazkur tadqiqot ishimizda yozuvchining hikoyalari tili, ish uslubi, so‘z tanlash va undan foydalanishdagi o‘ziga xos mahorati va boshqa jihatlari xususida fikrlar yuritimiz.

Ma’lumki, Shukur Xolmirzayev ijodi o‘zining serqirra, serbo‘yoqligi hamda ifoda vositalariga boyligi bilan xarakterlanadi.² Bu holat, shubhasiz, yozuvchining badiiy til imkoniyatlaridan keng va atroflicha foydalanganligini tasdiqlaydi. Ta’kidlash joizki, yozuvchi hikoyalari tili rang-barang xarakterga ega. Bu yozuvchining o‘zbek tili imkoniyatlaridan qay tarzda va qay yo‘sinda foydalanish mahoratidan dalolat beradi.

Yozuvchi hikoyalari dunyosiga kirib borar ekanmiz, muallifning teran, izchil fikrlarga ega ekanligiga duch kelamiz. Shubhasiz, yozuvchining badiiy til vositalaridan unumli foydalana olishi uning asarlari, jumladan hikoyalari tilining

² Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романининг тили мисолида) Филол. фанлари. номз. диссертацияси. – Т, 2000, 41 б.

³ Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари. Филол. фанлари. номз. диссертацияси. – Т, 2000, 32 б.

ravnaq topishiga sabab bo‘ladi. Xullas, shularga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu holat mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi o‘zbek tilshunosligida Shukur Xolmirzayev ijodining u yoki bu tomonlarini o‘rganish borasida ayrim tadqiqotlar yuzaga kelgan. Xususan, filologiya fanlari nomzodi Ro‘ziqul Normurodovning Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotini ko‘rsatib o‘tish lozim. Biroq ta’kidlanganidek, hali ko‘plab ijodkorlarimizning, xususan, Shukur Xolmirzayev asarlarining u yoki bu jihatlari tadqiqotchilarimizning nazaridan chetda qolib kelmoqda. Shuning uchun ham ushbu magistrlik ishimizda Shukur Xolmirzayev hikoyalari lingvopoetikasi masalasida fikrlar yuritmoqchimiz. Zero, yozuvchining badiiy til badiiyati yuksak saviyada ekanligi bilan xarakterlanadi. Chunki yozuvchi ijodida umumxalq o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan lug‘aviy birliklar jamlangan bo‘lib, undan yozuvchi imkon doirasida foydalanadi. Bu esa yozuvchining hikoyalari tilini o‘rganish va tadqiq etish uchun sabab bo‘ladi.

Tadqiqot vazifalari. Mazkur maqsadga erishish jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.

–Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilining o‘ziga xos qonuniyatlari va tamoyillarini belgilash;

–Shukur Xolmirzayevning umumxalq o‘zbek til imkoniyatlaridan foydalanishdagi topqir va zukkoligi hamda sezgir va serjavob ekanligini aniqlash;

–Shukur Xolmirzayevning til tasviriy vositalaridan foydalanishdagi o‘ziga xos mahoratini tekshirish va tahlil jarayonida ko‘rsatib berish;

–Shukur Xolmirzayev og‘zaki nutq vositalaridan foydalanishdagi o‘ziga xos mahoratini aniqlash kabilar asosiy vazifalar sirasiga kiradi.

Tadqiqotning obykti va materiallari. Ishning obykti sifatida yozuvchining hikoyalar to‘plamiga murojaat etildi. Yozuvchi hikoyalari orasidan ayrimlari tanlab olindi va tahlil doirasiga tortildi.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlarga munosabat va ilm-fan taraqqiyoti bilan bog‘liq qarashlari hamda

dialektik falsafaning keng tarqalgan tadqiq usullari ishning metodologik asosini tashkil etadi. Masalani yoritishda hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligi qo‘lga kiritayotgan yutuqlardan hamda jahon tilshunosligida amalga oshirilayotgan nazariy fikrlardan ijodiy foydalanish tadqiqot ishi uchun nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot mavzusini yoritish va bayon etishda hozirgi kunda tilshunoslikda keng tarqalgan tasnifiy metoddan, shuningdek, qiyosiy-chog‘ishtirish, taqqoslash metodlaridan keng foydalaniladi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Shukur Xolmirzayevning har bir so‘z va undan unumli foydalanishda ijodkorlik mahorati hisobga olindi, har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llay bilishda yozuvchining talant mahorati aniqlandi.

2. Yozuvchining umumxalq o‘zbek tili imkoniyatlaridan foydalanishdagi badiiy mahorati, xususan, xalqona tilda ijod etish iqtidori aniqlandi.

3. Yozuvchining til tasviriy vositalaridan o‘rinli va unumli foydalanishi va shuning barobarida asarlari tilining ta’sirchanligi oshib borishi kuzatildi.

4. Shukur Xolmirzayevning jonli so‘zlashuv til vositalaridan foydalanishida ham uning katta mahorat egasi ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotda o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalardan biri Shukur Xolmirzayev hikoyalari lingvopoetikasini o‘rganishga doir fikrlar baholi qudrat aytib o‘tildi:

– yozuvchining o‘zbek adabiy tili imkoniyatlaridan unumli va o‘rinli foydalanish mahorati aniqlandi;

– hikoyalari tilida muhim va kerakli deb hisoblangan nutqiy va lug‘aviy birliklari belgilanib olindi.

– yozuvchi hikoyalari tilida eng faol ishtirok etuvchi so‘zlar chastotasi (sur‘ati) ko‘zdan kechirildi va bajarilishi lozim bo‘lgan galdagi ishlar sirasiga yuklatildi;

– yozuvchining yetuk talant mahorati ekanligi hamda so‘z tanlash va undan foydalanish bilim va iqtidori ko‘rsatib o‘tildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan umumta’lim maktablarining ona tili va adabiyot darslarida o‘qitish samaradorligini

oshirish, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini o‘stirish maqsadida foydalanish mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarning so‘zamolligini oshirish hamda ulardagi qisqa, ixcham fikrlashni kamol toptirish yo‘lida va universitetning filologiya talabalariga mutaxassislik bo‘yicha amalga oshiriladigan ma‘ruzalarda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning hajmi 65 sahifani tashkil etadi.

Badiiy asarning bosh unsuri so‘z ekanligi hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Zero, so‘z, umuman, tildir⁴. Shu jihatdan ham asarning chinakam san‘at darajasiga ko‘tarila olishida badiiy til, xususan, muallifning til vositalarini qay darajada qo‘llay olishi asosiy omil hisoblanadi⁵. O‘tgan asrning 30-yillaridan boshlab o‘zbek adabiyotini zarhal harflar bilan bezab boshlagan Shukur Xolmirzayev ana shunday yetuk ijodkor sifatida tarixda mangu qoldi.

Darhaqiqat, Shukur Xolmirzayev o‘zbek adabiyotimiz tarixida chuqur iz qoldirgan ijodkordir. Shunga ko‘ra yozuvchining asarlarining tilini o‘rganish **birinchidan**, adibning badiiy til mahoratini belgilash imkoniyatini bersa, shu bilan birga, uning tilimiz rivojiga qo‘shgan hissasini aytish, baholash imkoniyati paydo bo‘ldi. **Ikkinchidan**, mullifning tilshunosligimiz taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini bekamu-ko‘st aytib o‘tish joiz bo‘ladi. U o‘ziga xos yozuvchi edi. Uning asarlari (qanday janrda yozilgan bo‘lmasin) xalqona ohanglarda bitilganligi bilan boshqa ijodkorlar uslubidan ajralib turadi. Ana shu o‘ziga xoslikni ta‘minlovchi badiiy til vositalari, shubhasiz, yozuvchining o‘zbek umumxalq tili vositalaridan unumli va o‘rinli foydalana bilishida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o‘rganish borasida talaygina ishlar yaratilgan va yaratilmoqda⁶. Ayniqsa, keyingi yillarda bu sohada qilinayotgan ishlar diqqatga molikdir (ta‘kid-bizniki G.B.). Biroq ayrim shoir va yozuvchilarimizning

⁴ Йўлдошев М. Бадий нутқ лингвопоэтикаси. Монография. – Т: Фан, 2008. 159.б

⁵ Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари. Филол. фанлари. номз. дисс..автореф. – Т, 2006 36 б.

⁶ Джалалова Л.Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романининг лингвистик тадқиқи. Филол. фанлари. номз. дисс..автореф. – Т, 2007. 28 б.

badiiy til mahoratini o'rganishga qaratilgan ishlar hali yetarli emas. Aytish mumkinki, Shukur Xolmirzayev asarlari tilining o'ziga xos tomonlari u yoki bu tomonlarga o'rganilgan⁷. Lekin yozuvchi hikoyalarning tili va uslubini o'rganish borasida hali jiddiy tadqiqot qilingan emas. Shuning uchun ham mazkur tadqiqot yozuvchi hikoyalarning tili va uslubini masalasida olib borilgan ilk tadqiqotlardan biridir. Mazkur tadqiqotda yozuvchi hikoyalari lingvopoetikasiga doir fikrlar borasida so'z yuritmoqchimiz. Masalaning muhim tomoni shundaki, har bir ijodkorning so'z tanlashdagi va qo'llashdagi mahoratini tadqiq etilishi tilshunosligimiz rivojida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir ijodkorning individual uslubi, o'zbek tili imkoniyatlaridan qay darajada yoki qay yo'sinda foydalana bilishi alohida uslubdir.

Shukur Xolmirzayev ijodi o'rganilayotganda, shubhasiz, yozuvchining bu boradagi izlanishlari o'ta darajada mukammal ekanligi bilan xarakterlanadi. Yozuvchi asarlari tilini qunt bilan o'rganish jarayonida shu narsaga amin bo'lamizki, uning tili sodda, ravon, xalqona va tushunarlidir. Bu, shubhasiz, muallifning umumxalq o'zbek tili vositalarini sinchkovlik bilan tanlay bilish mahoratidan darak beradi. Bu sinchkovlik, albatta, har bir ijodkorga taalluqli bo'lgan ish.

Zero, shoir va yozuvchilarimiz asarlar yaratish jarayonida o'z ijodiy laboratoriyalarida umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lug'aviy va uslubiy vositalarini jamlaydilar. Shular orasidan saralanganlarini o'z ijod sahifalariga kiritadilar.

Shukur Xolmirzayev shunday so'z sehrini sezgan, undan badiiy tilning namunali vositasi sifatida foydalana olgan ijodkor edi. Mazkur tadqiqot davomida Shukur Xolmirzayev o'zbek lingvopoetikasining o'ziga xos tomonlarini ochib berishda so'zdan unumli va o'rinli hamda mohirona foydalanishdagi ayrim jihatlarini ko'zdan kechiramiz.

Shukur Xolmirzayev– xalqchil yozuvchi. U xalqning tilini yaxshi bilgan, xalq tiliga hamohang bo'lgan ijodkordir. Shuning uchun ham yozuvchi asarlari tili

⁷ Махмудов Н.Абдулла Қахҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987.№4. 34-36 б.

xalqona ohangda yo‘g‘rilgan. Bu, shubhasiz, yozuvchi asarlari tilining sodda, ravon, tushunarli bo‘lishini ta‘minlagan. Xususan, yozuvchining badiiy til lingvopoetikasiga aloqador bo‘lgan **“Og‘ir tosh ko‘chsa”, “So‘nggi bekat”, “Qil ko‘prik”, “Bodom qishda gulladi”, “Qushlar qishlovdan qaytdi”, “Navro‘z, Navro‘z”** kabi hikoyalari tilini o‘rganish jarayonida buning bevosita guvohi bo‘ldik.

Shukur Xolmirzayev har bir asarining tilini puxta, pishiq, mukammal bo‘lishini ta‘minlashda, shubhasiz, xalq tili imkoniyatlariga e‘tibor qaratadi. Uning xalq hikmatli so‘zlari, maqol, matal va turli xil xalq og‘zaki materiallaridan foydalana bilishi tahsinga loyiqdir.

Shukur Xolmirzayev o‘ta nozik didli yozuvchidir. U har bir so‘zni nozik did, kuzatuvchanlik bilan tanlaydi. Shuning uchun ham yozuvchi asarlari tili ohangdor va jozibadordir. Xullas, yozuvchining ijodi serqirra va serbo‘yoqdir, shunga ko‘ra yozuvchi asarlari tili o‘ziga xos ohangda ifoda etilganlik nuqtayi nazaridan ham ajralib turadi.

Badiiy asar tilini o‘rganish ijodkorning o‘ziga xos badiiy til vositalarini tanlay bilishi, undan o‘rinli va unumli foydalana olishini taqozo etadi. Shubhasiz, tadqiqodchi yozuvchining badiiy mahoratini, o‘ziga xos uslubini o‘rganish borasida masalaning shu tomoniga diqqat-e‘tiborini qaratmog‘i lozim bo‘ladi.

Shukur Xolmirzayev ijodini o‘rganilish jarayonida yozuvchining o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan lug‘aviy va uslubiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.. Ta‘kidlash joizki, yozuvchi umumxalq tilida mavjud barcha lug‘aviy va uslubiy vositalardan mohirlik bilan foydalangan. Ayniqsa, uning badiiy til tasviriy vositalaridan foydalanishi, og‘zaki nutqqa xos so‘zlarni ishlatishda topqir va zukkoligi, yangi so‘z va iboralarni ishlatishi, shuningdek, frazemalardan foydalanish mahorati xarakterlidir. Shunga ko‘ra quyidagilar asosiy maqsad va vazifalar deb belgilandi.

– Shukur Xolmirzayevning har bir so‘zdan asar tilining puxta, pishiq, mukammal bo‘lishini ta‘minlash maqsadida foydalanishdagi badiiy talanti va iqtidorini aniqlash;

- badiiy tilning ohangdorligi va jozibadorligini ta’minlash maqsadida yozuvchining til tasviriy vositalaridan foydalanish imkoniyatini belgilash;
- yozuvchi asarlari tilining sodda, ravon, qisqa, ixcham bo‘lishini ta’minlovchi faktik manbalarni ajratish;
- yozuvchi hikoyalarda badiiy takrorlarning o‘rnini belgilash, uning takroriy vositalardan foydalanishdagi o‘ziga xos jihatlarini ochib berish;
- yozuvchi asarlari tilini xalqchil, xalqona til vositalariga boy bo‘lishini ta’minlashda og‘zaki nutq vositalarining alohida o‘rni kuzatiladi. Shunga ko‘ra yozuvchining jonli so‘zlashuvga xos til birliklaridan foydalanish talanti va iqtidorini aniqlash;
- o‘zbek hikoyachiligida tutgan o‘rnini, uning o‘zbek tiliga, undan foydalanishga bo‘lgan munosabatini belgilash.

Shunday qilib, Shukur Xolmirzayev – el ardoqlagan yozuvchi. Uning har bir asarini o‘qigan kitobxon olam-olam quvonch oladi, shodlik ummoniga g‘arq bo‘ladi. Shubhasiz, bu holat yozuvchini elga tanitgan uning asarlari tilidir. Yozuvchining o‘ziga xos uslubdaligidir. Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilini o‘rganish davr talabidir. Shu orqali yozuvchining o‘zbek adabiy tili hamda badiiy adabiyoti tili rivojiga qo‘shgan hissasini tadqiq etish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

I-BOB. SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARI TILIDA SO‘Z VA UNING TA’RIFI

1.1. Hikoyalarda sinonim so‘zlarning ishlatilishi

Badiiy asar uchun soʻz asosiy ozuqa manbasi hisoblanadi. Soʻz badiiy asarni jonlantiradigan, unga jilva beradigan, rang-barang manzara hosil qiladigan bezakdir. Soʻz va uning badiiy matndagi oʻrni hamda badiiy asarga yangicha mazmun baxshida etishi koʻplab tilshunos olimlar izlanishlarida oʻz ifodasini topgan¹. Xullas, soʻzdan nechogʻlik yoki qay yoʻsinda foydalanish badiiy asar uchun bitmas-tuganmas boylikka ega. Shukur Xolmirzayev soʻz sanʼatkori sifatida har bir soʻzdan unumli va oʻrinli foydalanadi, nima demoqchi boʻlsa, albatta, oʻz fikrini soʻz bilan bayon etadi. Shuning uchun ham yozuvchining har bir asarini tili puxta, sodda, ravon hamda oʻqilishi tushunarlilik bilan xarakterlanadi. Shukur Xolmirzayev hikoyalari tiliga nazar tashlar ekanmiz, **birinchi navbatda** yozuvchining aytayotgan fikrini qisqa, ixcham, loʻnda bayon etayotganligidan voqif boʻlamiz. Qisqalik esa asarning yanada mazmunini oshiradi, oʻquvchini koʻplab mushohada yuritishga jalb etadi. **Ikkinchidan**, asar tilida ishlatiladigan har bir soʻzni oʻz oʻrnida qoʻllay biladi, unga turlicha bezak berib asar tilining ohangdor, jozibador boʻlishiga erishadi. Pirovardida oʻquvchining asar mazmunini oʻz-oʻziga singdirib olish imkoniyatiga ega boʻladi. Xullas, yozuvchi asarlarida soʻz asosiy vosita sifatida ishlatiladi. Ushbu bobda yozuvchi ijodida soʻz va undan foydalanishdagi talant va mahorati xususida fikrlar yuritmoqchimiz.

Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilini qunt bilan oʻrganish jarayonida shu narsa maʼlum boʻladiki, yozuvchi har bir soʻzni ishlatishda undan maʼlum bir maqsadlarni koʻzlaydi. Yangicha maʼno qirralari ochishga harakat qiladi. Natijada asar tilining rang- barangligiga erishadi.

Soʻz umuman nutqning, shuningdek badiiy asarning ham asosiy ifoda vositasi boʻlib, yozuvchining maqsadi, hatti-harakati, intilishlari, qolaversa obraz yaratishdagi badiiy mahorati ham shu bilan bogʻliq holda yuzaga keladi. Soʻz kishining aloqa vositasi sanalgan tilning ham asosiy elementidir. Shunday ekan har bir sanʼatkor hayotni, voqeyilikni obrazli tasvirlashda tildagi soʻzlardan unumli foydalanadi.

Demak, soʻz har bir hikoyaning badiiy jihatdan taʼsirchan, obrazli, boʻyoqdor boʻlishida asosiy unsuridir. Qolaversa, badiiy nutq tushunchasi barcha xalqlarda

bir xil, biroq har bir xalqning o'ziga xos urf-odatlar borligi, yashash tarzi har xil bo'lgani uchun ham badiiy nutq turlicha nomoyon bo'ladi. Adibning hikoyalari tili ana shunday xalq an'analari, uning urf-odatlar, yashash tarzi, xalqning butun orzu umidlari zamirida shakllangani ham fikrimizga asos bo'ladi. Binobarin, tilda xalq gapiradi, shuning uchun ham, uning vakili bo'lmish san'atkor qanday xohlasa, shunday tarzda o'z fikrini so'z bilan ifodalaydi. Shukur Xolmirzayev o'z hikoyalari tilini boyitish, uning barkamol bo'lishini ta'minlash uchun ham xalq tiliga murojaat qiladi.

Har bir so'zning ma'naviy jihatini o'rganish jarayonida uning ma'nosi qay darajada ifoda usuliga ega bo'lishi va bo'lmasligiga qarab talqin qilinadi. Masalan, kambag'al va gado so'zlari ma'no jihatdan farqlanadi. Chunki kambag'al so'zi og'zaki nutqqa xos bo'lib, gado so'zi esa kitobiy nutqqa taalluqlidir. Ayni paytda kambag'al so'ziga nisbatan gado so'zining salbiy ma'nosi kuchlidir. Masalan, "shunday deb, u turmushning har qalay "yomon omonlari" ko'pligini esladi. Kambag'al, gadolar ko'p edi." ("Qil ko'prik", 12)

Umuman ushbu matnda kambag'al, gado so'zlari o'zaro sinonim so'zlar sifatida qo'llangan va ta'kidni kuchaytirish uchun foydalangan.

Darvoqe, so'z inson ma'naviyatining bitmas-tuganmas xazinasini sifatida namoyon bo'lar ekan, yozuvchilar o'z qahramonlarining xarakterini ochishida so'zning u yoki bu xususiyatlaridan unumli foydalanadilar. Ba'zan badiiy matnlarda so'zning ana shunday odamga ozuqa berishi, kayfiyat va ruhiyatini ko'tarishini ko'ramiz. Bunday misollar Shukur Xolmirzayev badiiy prozasi tilining o'ziga xos ifodaviyligini uyushtirishga ham xizmat qilgan: "qulluq, qulluq, boshim osmonga yetdi, jon uka. Yanagi shanba. Soat oltalarda. Ishdan chiqadigan paytimizga to'g'ri keladi." ("Og'ir tosh ko'chsa") ushbu matndagi talaygina so'zlar kishiga ma'naviy ozuqa beradi, chunki har bir so'zda hurmat, izzat, iftixor kabi ma'nolar mujassam etilgan. Xususan, qulluq, qulluq takror so'zlari boshim osmonga yetdi, jon, uka kabi birikmalarda sevinmoq, suyunmoq ma'nolari bor. Bunday so'zlarning matnda shu tarzda qo'llanishi faqat asar tilining o'ziga xosligini ta'minlabgina qolmaydi, balki so'zlovchi tomonidan tinglovchiga ma'naviy ozuqa beradi. Demak, so'zdan o'rinli

va unumli foydalanish , xususan inson nutqida doimo yaxshi va ijobiy soʻzlarning namoyon boʻlishi inson maʼnaviyatiga ijobiy taʼsir etib boradi. Badiiy adabiyot tilida soʻzdan oqilona foydalanish natijasida badiiy matnning taʼsirchanligi oshadi va kishining diqqatini oʻziga jalb etadi.

Badiiy hikoyalar tilini qunt bilan oʻrganar ekanmiz, unda soʻzlarning matnlarda obrazlilikni uyushtirish hamda boʻyoqdorlikni yuzaga keltirishini kuzatamiz. Bu oʻrinda M. Polyakovning ushbu fikrini keltirib oʻtishimiz oʻrinlidir: “Badiiy adabiyot tilida soʻz obrazli tushunchalarni shakllantiradi va uni yuzaga keltiradi”⁸. Shunday ekan, soʻz badiiy matnda obrazli fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi, buning uchun yozuvchida obraz yaratish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud boʻlishi lozim.

Sinonimlarni ishlatish masalasi Shukur Xolmirzayev hikoyalari tili uchun xarakterli boʻlib, uni alohida rejada oʻrganish sanʼatkor badiiy mahoratini qay darajada ekanligidan dalolat beradi. Inchinun, sinonimlar ham til lugʻat tarkibidagi boshqa soʻzlar kabi umumiy va yakka tartibdagi belgilariga ega boʻlib boshqa soʻzlar kabi maʼno ifodalash xususiyati jihatdan umumiy boʻlsa ham, sinonimik qatordagi soʻzlarning maʼno ifodalashdagi rang-barangligi nuqtayi nazaridan ularning alohida jihatlari mavjud. Xuddi shu narsa sinonimlarning badiiy adabiyotda faol qoʻllanilishi uchun zamin yaratadi. Undan har bir sanʼatkor oqilona foydalanishi lozim. Sh. Xolmirzayev bu masalada yetarli imkoniyatlarga ega boʻlgan ijodkor sifatida sinonim soʻzlarni har bir asariga singdirishga harakat qiladi va oʻz asari qahramonlarining nutqini boyitadi. Masalan. “Mabodo birining qolib birining ketishiga toʻgʻri kelsa, oʻsha tun uylarida uyqu ham kam boʻlar edi va tun sifatida yodlarida qolar edi”. (“Ogʻir tosh koʻchsa”)

Ikromjon shunday “baʼzan” paytlarda shirin oʻtgan damlari Tursunoy bilan kabutarlar kabi gʻudillashib gaplashganlari, piqir-piqir kulishganlari va shirin-shirin xayol surib yotganlarini eslash bilan koʻngliga taskin beradi. (“Ogʻir tosh koʻchsa”)

Ushbu matnlarda Sh.Xolmirzayev shirin va lazzatli soʻzlarini qoʻllash orqali hayotiy masalalarni ham yorqin timsollar asosida ochib bergan, yaʼni qahramonlarning xarakteridagi oʻziga xos jihatlari, ichki ruhiyati va bir-biriga

⁸ Поляков М.С. Вопросы поэтики и художественной семантики.- М.: Просвещение, 1978- с 128.

bo'lgan munosabati ana shu til birliklari orqali kitobxon ko'z o'ngida gavalantiradi. Ayni paytda matnda qo'llanilgan bu so'zlar ma'nodagi nozikliklari bilan ham farqlanadi.

Chunonchi, "lazzatli" so'zida belgi darajasi kuchli bo'lib, ma'lum darajada lazzat baxsh etish darajasidagi xususiyatni ifodalash uchun ishlatiladi. "Shirin" so'zida esa esa asosiy e'tibor narsa-predmetdagi mavjud o'ziga xos xususiyatiga qaratilgan va ana shu jihati o'z ifodasini topgan, ya'ni shirin so'zida maza ta'mni ifodalash kuchliroq bo'lsa, lazzatli so'zida rohatbaxshlikni ifodalash kuchliroqdir. Yozuvchi asarlarida sinonimik qatorlarga kiruvchi bunday so'zlardan foydalanish namunalari anchagina uchraydi. Ko'rinadiki, yozuvchi o'z qahramonlarining ichki dunyosidagi xarakterli xususiyatlarini ochish maqsadida ham ushbu so'zlardan foydalangan. Aslida, yozuvchi bir tushunchani turli vositalar bilan ifodalash maqsadida ham shu narsaga e'tiborini qaratgan. Ayni paytda, matndagi qo'llanilgan so'zlarning bu ma'nosidagi noziklik ham turlicha ekanligini nazardan qochirmagan. Matnda "tgan damlari" iborasini qo'llar ekan, yozuvchi keyingi jumllarida bu iborani go'yo "parchalaydi". uning ifodalagan ma'nolarini birma-bir izohlaydi: g'udillashib gaplashganlari, piqir-piqir kulishganlari, shirin –shirin xayol surib yotganlari kabi matniy sinonimlar orqali o'sha tushuncha mohiyatini ta'kidlash orqali ochib beradi.

Binobarin matniy adabiyot tilining rang-barangligini turli so'z va iboralar ana shunday holatga keltiradi. Badiiy tilning bu kabi uslubiy jihatdan bo'yoqdor va jozibador bo'lishini ta'minlashda sinonim so'zlar asosiy vazifani bajaradi. Badiiy asar tilida qo'llaniluvchi sinonimlar nozik ma'nosiga ko'ra farqlanadi, shu jihatdan sinonimlar oasidagi nozik ma'no farqlari o'ziga xos ekspressiv mazmuni keltirib chiqaradi, sinonimik qatordagi so'zning har biri ma'lum uslubdagina qo'llaniladi. Xususan san'atkorlar bir so'zni aynan takrorlamasliklari uchun sinonimlarning ana shu badiiy- semantik nozikligiga e'tibor beradilar. Shuning uchun ham, sinonimlar nutqning rang-barangligi, uning ifodaliligini belgilovchi vosita bo'lib, so'z tanlash tamoyilidan kelib chiqib, yozuvchi tili va uslubini o'rganish uchun xos bo'lgan

masalalardan biridir⁹. Sinonim soʻzlar nutq jarayonida tabaqalanadi. Bu tabaqalanishda ham sinonimlarning emotsional- stilistik boʻyoqdorligi va maʼno nozikligining ayrim tomonlari oʻrganilib boradi. Xususan, sinonimlarning badiiy nutq uchun xoslanganlari, asosan ijobiy boʻyoqqa ega boʻladi, hamda ularda tantanavorlik, poetik jihatdan ustunlik kuzatiladi, ogʻzaki nutqqa xoslarida esa salbiy boʻyoq kuchliligi seziladi. Darhaqiqat, tillarda sinonim soʻzlarni shu tarzda tabaqalab qoʻllash muhim xususiyatlarni vujudga keltiradi. Masalan: “Safga yaroqsiz turna ham taqdirga tan bermogʻi kerak. Lekin oʻjar, qaysar. Choʻloq buni his etsa-da, oʻzini dahshat qoʻyniga tashlagisi kelmaydi” (“Ogʻir tosh koʻchsa”). Ushbu matnda qoʻllanilgan oʻjar, qaysar soʻzlari ogʻzaki nutqqa xos sinonimlardir. Avvalo, matn rang-barang boʻyoqqa ega, undan tashqari badiiy matnga xos belgilarni ifodalagan. Ammo yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, bu sinonim soʻzlar asosan salbiy munosabatni ifodalash uchun qoʻllanilgan, yaʼni oʻz taqdiriga tan berishni istamagan turnaning salbiy tomoni shu tarzda chizib berilgan. Sinonimlarni shu tarzda belgilash ham badiiy asar tilining serjilo va serboʻyoq boʻlishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Umuman olganda, sinonimlar barcha tillarda badiiy tilning lugʻat boyligini tashkil etuvchi birliklar hisoblanib, matnda turli xil maʼno nozikligini yuzaga keltirishda keng imkoniyatlarga ega. Shuning uchun ham, har bir sanʼatkor bir soʻzni aynan ishlatmaslik uchun ham fikrning izchil va taʼsirchan boʻlishini taʼminlash maqsadida sinonimlardan keng foydalanadi. Bu esa sinonimiya hodisasiga mumkin qadar eʼtiborni koʻproq qaratmoqlikni taqozo etadi. Shu boisdan ham Sh.Xolmirzayev asarlarida yozuvchi oʻzbek tili leksikasining asosiy tarmoqlaridan biri boʻlgan sinonim soʻzlardan unumli foydalanishga harakat qilgan¹.

1.2. Koʻp maʼnoli soʻzlarning qoʻllanilishi

⁹ Дониёров А Бадий нутқ стилистикасидан материаллар.-Гулистон, 1995. -Б.113

Shukur Xolmirzayev badiiy tilini boyituvchi lug‘aviy birliklardan yana biri ko‘p ma’noli so‘zlardir. Ma’lumki, ko‘p ma’nolilik barcha tillarning lug‘at boyligini belgilashda ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Ko‘p ma’nolilik bir so‘zning ma’no ko‘chimidan yangicha ma’nolar yuzaga kelishi natijasida hosil bo‘ladi.

Demak, biz ko‘p ma’noli so‘zni bir so‘z tarzida anglaymiz hamda uning ma’no jihatdan turfa xususiyatlarga ega ekanligini tushunamiz. Quyida yozuvchi hikoyalarida uchraydigan ko‘p ma’noli so‘zlarning ba’zi jihatlarini ko‘rib o‘tamiz.

Masalan, “Soqiy uzun burnini jiyirib,” Bu yomon-ku,” - deb to‘ng‘illadi Islom bilan pichirlashib, qattiq kulishdi.” (“Og‘ir tosh ko‘chsa”)

“Uzun ko‘chaning bir boshi markaz tarafga ketar, bir boshi toshloq orqali soyga tushardi.” (“Og‘ir tosh ko‘chsa”)

Yuqorida berilgan ikkala gapda ham “uzun” so‘zi qo‘llanilgan va ma’no bir-biridan farqli tomonlarini yuzaga keltirgan, ya’ni birinchi gapda burunning uzunligi, ikkinchi gapda ko‘chaning uzunligini ifodalagan. Ko‘p ma’nolilik tilning lug‘at boyligini yuzaga keltiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, polisemiya bir so‘zning ma’no ko‘chimidan yangicha ma’nolar kelishi tarafdin yuzaga keladi. Ana shu yangi ma’nolar turli xil fikr va ifodalarni uyushtiradi yoki narsa va predmetlar orasidagi aloqadorlikni mantiqan asoslashga xizmat qiladi. Shu jihati bilan u til boyligiga aylanadi. Polesemantik so‘zning bu kabi yangicha ma’nolar asosida shakllanishi Shukur Xolmirzayev ijodi uchun ham xosdir. Buni quyidagi misollar orqali yaqqol ko‘rishimiz mumkin: “Hm, davomini ham aytaymi? Keyin bemehr o‘g‘il oilaga bosh bo‘lib qoldi. Otasining barcha marosimlarini o‘sha o‘tkazadi”. (“Og‘ir tosh ko‘chsa”)

“Uzun ko‘chaning bir boshi markaz tarafga ketar, bir boshi toshloq orqali soyga tushardi.” (“Og‘ir tosh ko‘chsa”)

Keltirilgan so‘zlardagi bosh so‘zi ko‘p ma’nolilik xususiyatiga egadir.

Chunonchi, birinchi jumlada: “oilaga boshliq, rahbar” ma’nolarida, ikkinchi gapda “ko‘chaning yuqori tarafi” ma’nosida qo‘llanilgan. Ko‘rinadiki, bosh so‘zining turli ma’nolaridan o‘rinli foydalana olgan. Ko‘p ma’nolilikning yuzaga kelishi obyektiv borliqni anglashda, uni his etishda, shu bilan birga til taraqqiyotining rivoji bilan belgilanadi. Ya’ni polisemiya taraqqiyot va ma’naviy rovoj belgisidir.

Qaysi xalqda fan, texnika, madaniyat, san'at taraqqiy etadigan bo'lsa, o'sha xalq obyektiv borliqning o'zaro alaqasini shuncha ko'proq ko'radi, ularni bir-biriga ko'proq qiyos etadi va bular tilda ko'proq o'z aksini topadi. Shunday ekan so'zda turli ma'nolarni yuzaga kelishi jarayonida oraliqdagi biror ma'no keyingi ma'nolarni o'zaro bog'lovchi zanjir vazifasini bajarishi ham mumkin.

Albatta, bu holat o'zbek adabiy prozasi tili uchun muhim bo'lib ko'p ma'nolilikni tahlil etishda ana shu so'zlar orasidagi ma'no munosabatni tushunib yetmoq lozim. Chunonchi. Muallif ijodida ham polisemiyaning shu kabi xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Aytish mumkinki, ikki xil yoki undan ortiq narsa va predmetlarning ma'nodagi vazifadoshligi nutqning uslubiy tomondan jozibadorligini ta'minlaydi.

Quyida keltirilgan matnlardan buni kuzatishimiz mumkin: "To'g'aysari Bahodir ko'rimsiz bir yigit bilan Murtozning o'rtasida. Egnida qora chakmon, oyog'ida o'kchali etik. Etaklariga loy sachragan. Etakdagi qora dara tomondan uchib kelayotgan otliqlarga qaraydi." ("Qil ko'prik", 243) ushbu kichik parchada etak so'zi ikki o'rinda keltirilgan. Darvoqe, choponning etagi, tog'ning etagi, daryoning etagi, buloqning etagi va hakoza tarzda bo'lishi mumkin. Demak, ushbu gaplarda keltirilgan *etak* so'zi ko'p ma'noli so'zdir. Etak so'zidagi ko'chish metafora yo'li bilan yuzaga kelgan. Yozuvchi *etak* so'zini ikki xil yo'l bilan qo'llash orqali asarining xalqchil bo'lishini ta'minlagan.

Ko'p ma'nolilikni tahlil etish, uni biror asar yoki hikoya talqinida yoki bo'lmasa ma'lum bir ijodkor ijodi orqali o'rganish muhim faktlarni yuzaga keltirishi, ma'lum nazariy xulosalarga asos bo'lishi tabiiydir. Shu boisdan bo'lsa kerak, yozuvchi ijodida qo'llanilgan ko'p ma'noli so'zlarni tahlil etish, ijodkor badiiy mahoratining qay darajada ekanligini belgilab beradi.

1.3. Adib asarlarida antonimlarning ishlatilishi

Shukur Xolmirzayev asalarida antonimlarning ham ishlatilishi ham o'ziga xos. Ma'lumki, qarama-qarshi (zid) ma'nolarni bildiradigan so'zlar antonimlar deyiladi. Masalan, yaxshi-yomon, uzun-kalta, baland-past va h. Antonimlik munosabatlari asosan belgi bildiruvchi so'zlarda bo'ladi. Shu boisdan antonimlar asosan sifat: oq-

qora, ravish: yaqin-yiroq, qisman ot turkumiga urush-tinchlik, do'st-dushman. Tildagi barcha so'zlarning antonimi bo'lavermaydi. Masalan, son, olmosh. Modal so'zlarda antonimlik munosabatlari mavjud emas. So'zlar asl ma'nosiga va ko'chma ma'nosiga ko'ra antonim bo'lishi mumkin. Masalan, issiq-sovuq, asl ma'nosiga ko'ra, issiq (yoqimli-istarasi issiq), sovuq (yoqimsiz-turqi sovuq) ko'chma ma'nolariga ko'ra ham antonimdir. Ko'p ma'noli so'zlar ham har bir ma'nosi bilan ham boshqasiga antonim bo'lishi mumkin.

Adib yetarli imkoniyatlarga ega bo'lgan ijodkor sifatida antonim so'zlarni har bir hikoyalarida singdirishga harakat qiladi va o'z hikoya qahramonlarining nutqini boyitadi. Masalan: "Yigitali xo'rsindi, o'choq yaqinidagi xarsangda o'tirgan Esonga ko'zi tushib, xo'mraydi, so'ng jilmaydi. Eson "E" deganday qo'l silkidi". ("Og'ir tosh ko'chsa"). Bu gapda xo'mraydi-jilmaydi so'zlari antonim bo'lib kelgan. Bu so'zlarni qo'llash orqali hayotiy masalalarni ham hayotiy timsollar asosida ochib bergan.

Xullas, yozuvchi Shukur Xolmirzayev ijodini kuzatar ekanmiz:

- 1) uning o'zbek nasri tilining so'z boyliklarini yaxshi bilishi anglashiladi.
- 2) o'z hikoyalarida tilimiz lug'at boyligidagi so'zlarni saralashga, tanlashga befarq emasligi kuzatiladi....
- 3) muallif so'zlarni to'g'ri qo'llar ekan, hikoyada uni o'zi ko'tara oladigan badiiy vazifa yuklaydi.
- 4) yozuvchi o'z hikoyalarida sinonim, ko'p ma'noli so'zlar, antonimlardan o'rinli foydalangan va bu bilan hikoyalarning xalqchilligini ta'minlagan.

Shukur Xolmirzayev sinonimlar va ko'p ma'nolilikning badiiy asardagi o'rnini to'g'ri his etadi, hamda o'z hikoyalarida ulardan o'rinli foydalanishga alohida e'tibor beradi.

II BOB. YOZUVCHINING TIL TASVIRIY VOSITALARDAN

FOYDALANISH MAHORATI

2.1 Perifrazalar haqida so'z

Uslub va stilistik tasviriy vositalarni o‘rganish tilshunoslik fanining doimiy dolzarb va muhim vazifalardan biridir. Chunki har bir lingvistik badiiy vosita nutq jarayonida nominativ vazifani bajarish bilan bir qatorda badiiy tasviriy vosita ham bo‘lishi mumkin. Zero, bunday vositalar badiiy tilning har jihatdan ta’sirchan bo‘lishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Darhaqiqat, o‘zbek adabiy tilida tasviriy vositalar ishlatiladi, nutqda badiiy bo‘yoq, ekspressivlik beradi. Shunday ekan muhim sanalib ular badiiy adabiyotda, og‘zaki nutqda, folklorda juda ko‘p tasviriy vositalarni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish va tahlil etish bugungi davr tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Shu o‘rinda badiiy tilning har tomonlama joziba va ohangdor bo‘lishiga keng imkoniyat yaratuvchi ayrim badiiy tasviriy vositalar haqida qisqacha bayon etamiz.

Ma’lumki, Shukur Xolmirzayev o‘z asarlari tilini boyitish maqsadida o‘zbek tilining tasviriy vositalaridan unumli foydalangan. Ana shunday badiiy tasviriy vositalardan biri perifrazalar bo‘lib, undan foydalanish orqali yozuvchi o‘z asarlari tilining rang-barang va ohangdor bo‘lishiga erishgan.

Perifraza - rus, ukrain, belorus va boshqa qardosh xalqlar tilshunosligida keng doirada o‘rganilgan. Keyingi davrlarda turkologiyada ham bu tasviriy vositani o‘rganishga e’tibor berilmoqda.

Perifraza haqida fikr yuritish, uni u yoki bu tomonlama tahlil etish ayni vaqtda yozuvchining perifrazadan foydalanishdagi mahoratini ochib berish bilan birga, perifraza haqida ayrim mulohazalarni aytib o‘tish lozim. Xususan ko‘pgina ayrim manbalarda perifrazaga quyidagicha ta’rif berilgan. Shulardan ayrimlarini alohida sanab o‘tishni lozim deb topdik.

Kishilarning otlarini yoki predmetlarning nomini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalamasdan, ularni turli xil so‘z yoki iboralar yordamida bayon qilish perifraza deyiladi.

Ko‘chim turlaridan biri bo‘lib, unda narsa yoki inson nomi bilan emas, balki unga xos asosiy belgilar, xususiyatlar nomi bilan yuritiladi.

Perifraza- grekcha *yaqin gapiraman* soʻzidan olingan boʻlib, unda kishi va narsa nomlari toʻgʻridan-toʻgʻri gapirilmasdan, ular turli xil soʻz yoki iboralar yordamida ifodalanadi.

Yuqorida koʻrsatilgan taʼriflardan maʼlum boʻladiki, perifraza kishilarning nomlari yoki narsa va predmetlarning nomlari oʻrnida qoʻllaniladigan tasviriy vositalardir. Odatda perifraza badiiy tilning rang-barangligini, taʼsirchanligini, ohangdorligini va jozibadorligini taʼminlovchi stilistik boʻyoqqa ega boʻlgan koʻchimdir.

Zikr etilganidek, keyingi davrlarda perifraza ham oʻzbek tilshunosliginig oldida turgan murakkab vazifalardan biridir. Shu jihatdan ham, perifrazani oʻrganishga qaratilgan bir qator maqola xarakteridagi tadqiqotlar mavjud boʻlib, ularda bu vositalarning ayrim tomonlari ochib berilgan. Xususan, filologiya fanlari doktori H. Shamsiddinovning shu mavzudagi baʼzi bir tadqiqotlari ushbu yoʻnalishdagi ishlarning yaratilishi uchun asos boʻlishi mumkin.

Demak, perefrazani oʻrganish, nafaqat boshqa tillarda, balki, oʻzbek tilshunosligida ham muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, uning badiiy adabiyot tilida qoʻllanilishi badiiy nutqning obrazli tushunchalarga ega boʻlishida keng imkoniyatlar yaratadi. Bunday koʻrinishni oʻzbek badiiy prozasining qator namoyondalari ijodi orqali oʻrganish mumkin.

Jumladan, Shukur Xolmirzayev oʻz badiiy asarlari tilini boyitishi, uning yanada barkamol boʻlishini taʼminlash hamda kitobxonning diqqatini jalb etish maqsadida perifrazadan unumli foydalanishga eʼtibor bergan. Ayni paytda, perefrazadan yetarli darajada foydalanish, muallif asarlari tilining yanada barkamol boʻlishini taʼminlagan. Maʼlumki, perifrazalar tuzilishiga koʻra sodda, qoʻshma, murakkab turlarga boʻlinadi. Yozuvchi ijodini tahlil qilish jarayonida perifrazaning bu kabi koʻrinishlarini kuzatish mumkin. Xususan adibning “Soʻnggi bekat”, “Qil koʻprik” romanlarida, “Ogʻir tosh koʻchsa” hikoyalar toʻplamida perifrazadan mahorat bilan foydalanganligi uchun ham u asarlarning badiiy qimmati yanada oshganligini koʻramiz.

O. S. Axmanova perifraza hodisasining ikki xil xususiyatini sanab oʻtadi:

1. Tasviriy ifoda.
2. Biror soʻzni yoki birikmani ifoda bilan almashtiruvchi koʻchim.

Bizningcha perifrazaning mavjudligini yoki uning mohiyatini ochib berish uchun bu ikki xil xususiyat toʻla toʻkis oydinlik kiritmaydi. Buning uchun badiiy asar matnlarida perifrazaning qanday qoʻllanilishi yoki ishlatilishini koʻrib oʻtish maqsadga muvofiqdir. Bu borada Shukur Xolmirzayev ijodi ham bundan mustasno emas. Ijodkor asarlari tilida perifraza ham tasviriy vosita, ham biror soʻzni almashtiruvchi tasviriy element, emotsional-ekspressivlikni oshiruvchi koʻchim turi sifatida qoʻllaniladi.

Quyida baʼzi bir fikrlar orqali bu masalalarga diqqatni jalb etamiz.

1. Yozuvchi oʻz asarlarida maʼlum bir predmet yoki inson faoliyati bilan bogʻliq hodisani yangicha nomlash orqali fikrni aniq tasvirlashga erishadi. Bunda perifrastik maʼno nomlangan soʻzning maʼnosiga qaraganda ancha taʼsirchan va ifodaviyligi bilan ajralib turadi.

Xususan, Sh. Xolmirzayev badiiy matnda *tun qushi, janob oliylari, lashkari islomning sardori, Mahmud Qoshgʻariy maktabining direktori, ilhomi soʻngan, toʻrt oyoqli bola* singari qoʻshilmalar perifrastik maʼno ifodalash maqsadida ishlatilganidan voqif boʻldik.

Masalan, “Tun qushi ohista uchib oʻtdi, uning qizgʻish koʻzlari koʻrindi”. (“Bodom qishda gulladi”, 130)

“-Yana toʻrt oyoqli bola...Bola! Choljon, haqiqatdan ham enam bola boʻlib qolibdi-ku? Erta indin xassaga ham tayanib yuralmay qoladi”. (“Ogʻir tosh koʻchsa”, 121)

Keltirilgan matnlarda *tun qushi, toʻrt oyoqli bola* perifrastik qoʻshilmalari boyqush, kekxa ayol, yaʼni kampir soʻzlari maʼnosida ishlatilgan boʻlib, yozuvchining oʻziga xos tarzda perifrazadan foydalanish mahoratini anglab olishiga imkoniyat yaratadi. Bu ham oʻziga xos perifrazadan foydalanish mahoratini anglab olishimizga imkoniyat yaratadi. Bu ham oʻziga xos perifraza yaratish namunasi boʻla oladi.

Badiiy adabiyot tilida har bir badiiy tasviriy vosita ma'lum bir voqea va hodisalarni tasvirleyotganlarida unga ekspressiv tus va badiiylik berish, fikrga yanada aniqlik kiritish uchun tasviriy so'zlarga murojaat qiladilar va undan tasviriy vosita sifatida foydalanadilar,¹ degan fikrga to'la qo'shilgan holda shu narsani alohida qayd qilish mumkinki, yozuvchi o'zi tasvirlanayotgan voqea –hodisalarga badiiy tus bera oladi. Bu esa o'z navbatida badiiy tilning ta'sirchanligini oshirishiga xizmat qiladi.

2. Darhaqiqat, yozuvchi asarlarida perifraza ma'lum voqea-hodisani ifodalashda shaklda ham mazmunga asoslanadi. Masalan:

“-Ichishadi?- dedi hazrat. Va achchiq kuldi.- Yosh Buxoroliklar a'lo hazratdan obodonchilikka ham e'tibor qaratilsin deb, bejiz iltimos qilishmayapti-ku” (“Qil ko'prik”, 25) yoki “Buning ustiga, sovxozning quvvati kam, terim mashinalarini sotib ola olmaydi!” - deb tavallo qildi” (“So'nggi bekat”, 27)

Ushbu matnlarda keltirilgan *a'lo hazrat, quvvati kam* perefrazistik birikmalar orqali fikrning ta'sirchan bo'lganini ko'ramiz. Aslida, bu tasviriy ifodalar podsho, kambag'al so'zlarining qayta nomlanishi bo'lib, badiiy salmoqdorlikni oshirishga harakat qiladi.

Avvalambor, badiiy proza tilida har bir tasviriy vosita badiiy tilning teran, ta'sirchan, jozibador va bo'yoqdor bo'lishi uchun turli xil tasvirlarni vujudga keltiradi. Boshqacha aytganda, har qanday til elementlari ham ba'zi tasviriy tushunchalar singari tasviriy ko'chim turi vazifasini bajaradi. Bu xususiyat perefrazaga xos bo'lib, ba'zi manbalarda hatto frazeologik iboralar, oddiy so'zlashuv nutqiga xos birikmalar, xalq maqollari ham perifrazistik ma'noga o'tishi(133,107) ko'rsatilgan.

Buni Sh.Xolmirzayev asarlari tilida ham uchratamiz.

3. Chunonchi, yozuvchi oddiy so'zlashuv tiliga xos iboralarni qo'llash orqali xalq tiliga yaqinlashib boradi va uning kerakli tomonlaridan foydalanishga harakat qiladi. Natijada yozuvchi asarlari tili xalq tili bilan hamohang ma'no kasb etadi.

“ Xo'sh, tamaddi qilamizmi?- deb so'radi mehmonlardan.

–Ha, choy ichsak bo'ladi,- dedi kattasi.

– Keyin Xorazmga. Vaqt o‘tsin, do‘stim!” (“Og‘ir tosh ko‘chsa, 12”)

Matnda keltirilgan *tamaddi qilmoq* leksemasi og‘zaki nutqqa xos bo‘lib, ovqatlanmoq so‘zining o‘rnida ishlatilgan. Garchand, bu birikma oddiy so‘zlashuv nutqi uchun xos bo‘lsa-da u badiiy nutqning jozibadorligini ta‘minlagan.

4. Bundan tashqari, yozuvchi ijodida perifrastik bo‘rttirish, hurmat, izzat ma‘nolarini hosil qilish uchun ham ishlatiladi.

Shuningdek, yozuvchi iboralardan unumli foydalanib, perifrastik munosabatni shakllantirgan. Masalan: “Men Sodiqbekning tug‘ilgan kunlari hali ko‘p bo‘lishini, Husan aka qo‘li ochiq, mehmondo‘st ekanini aytib, o‘shanday ziyofatlarga jon-jon deb borishga so‘z berdim” (“Og‘ir tosh ko‘chsa”, 10)

Bu matnda *qo‘li ochiq* frazeologik iborasi *saxiy* so‘ziga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish orqali perifrastik ma‘noda fikrning obrazli bo‘lishini ta‘minlagan. Ba‘zan perifrastik badiiy nutqda narsa yoki predmetlarning ma‘lum belgisini ifodalash hamda kishining ma‘lum o‘ziga tegishli qismini anglatmoq uchun ham ishlatilmog‘i mumkin. Albatta, bu o‘rinda biror predmetdan anglashilgan belgida kishi uzviyligiga tegishli qismi emas, balki boshqa tushunchaning ma‘nosini anglatmoq lozim.

Shuni aytish mumkinki, yozuvchining badiiy mahoratini oshirishda perifrastikdan ana shunday usulda foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida berilgan matn orqali perifrastikning shu maqsadda qo‘llanilganini ko‘ramiz.

“-Qiziq odam”, - dedi ayolim.

- Yana kimlar bor edi.

- Faqat sen yo‘q eding... Uchta sovxoz direktori, beshta brigadir. Ikkita bo‘lim boshlig‘i. Oltita vrach... Mahalla oqsoqoli, magazin direktori” (“Og‘ir tosh ko‘chsa”,9) ushbu matnda mahalla oqsoqoli birikmasi tarkibidagi oqsoqol so‘zining semantik tuzilishida inson yuziga tegishli qismi, ya‘ni soqolning oqligi, qarigan kishi ma‘nosi mavjud bo‘lsa-da, matnda bu narsa mahalla boshlig‘i ma‘nosini anglatmoq uchun qo‘llanilgan. Aniqrog‘i, perifrastik ma‘no yuzaga kelgan. Ayniqsa, ushbu so‘zda bo‘rttirish, hurmat belgisining kuchliligi tufayli ham fikrning izchil va ta‘sirchan bo‘lishi ta‘minlangan. Badiiy prozaning xarakterli

xususiyatlaridan yana biri shundaki, har bir san'atkor so'z qo'llashda ma'lum bir tushunchaning o'ziga xos sifat va belgilarini tasvirlashda, uning xarakterli qirralarini ochib berishda esa turli qirralarni yaratadi. Bu tasviriy ifodalar yozuvchi ijodi uchun ham xos bo'lib, Sh.Xolmirzayevning har bir asariga perifrastik o'ziga xos tarzda qo'llangan va kitobxon diqqatini o'ziga jalb etadi. Masalan: "Keyin amir nomiga bitta maktub bitilgan edi. Janob oliylari maktubni o'qib, yoshlarni o'z huzurlariga chaqirdilar." ("Qil ko'pri", 8)

Keltirilgan matnda yozuvchi amir so'zini qayta qo'llamaslik uchun ham *janob oliylari* birikmasidan foydalanganlar. Bu esa o'z navbatida so'zning takror-qaytariqni yuzaga keltirmaslikning o'ziga xos usulidir. Chunki bir so'zning aynan o'zini takrorlash ham nutqning aniqligiga, uning rovonligiga putur yetkazadi. Ko'rinadiki, aniqlik, ravonlik nutqning bezagi bo'lib, u bevosita kishining so'z ma'nosini yaxshi tushunishi, aniq tasavvur qilishi bilan bog'liq.

Demak, yuqorida keltirilgan matn ham bundan mustasno emas. H.Shamsiddinovning ta'kidlashicha, perifrastikning yuzaga kelishida xotira tasavvuri bilan xayol tasavvurining ishtiroki bo'ladi. Chunki perifrastik ongning zarur elementlarini vujudga keltiradi. Bunda tasavvurning o'rni alohida ko'rinadi. Ongning zarur elementi bo'lgan "tushunchalarning ma'no va ayni paytda ongda predmetlarning hissiy obrazlari bilan ekin ravishda ish ko'rish imkonini beradi."

Darhaqiqat, tilda mavjud bo'lgan barcha lug'aviy birliklar va tasviriy vositalar bir-biriga o'xshash va bir-biridan farqli tomonlarga egadir. Shu jihatdan ham bo'lsa kerak, perifrastikni o'rganish jarayonida uning ayrim yondosh hodisalarga yaqinligi va ulardan farq qilish tomonlarini alohida ko'rib o'tishni lozim topdik.

Ana shunday o'xshash va farq qiluvchi tomonlar Shukur Xolmirzayev asarlari tili uchun ham xos bo'lib yozuvchi bu borada jozibador va ohangdor perifrastik so'z va iboralar yaratadi. Avvalo perifrastikni evfemizmga, sinonimlarga metonimiya va metaforalarga o'xshash tomonlari bor. Tabu va evfemizmlar perifrastikdan keskin ravishda farq qiladi, masalan, o'rmonning egasi(ayiq), o'chmas shahar(Rim) va boshqalar.

Shukur Xolmirzayev ijodida perifrazalar va evfemizmlarning qo‘llanishida ma‘lum aspektda o‘rganish uchun ham fikrni quyidagi matnlarga jalb etish lozim: “Eshik og‘zi, ko‘chaning bir bo‘lagi odamga to‘la edi. Quvvatbekovning ayoli saharda uzilgan” (“So‘nggi bekat”, 244)

“Maqsad aktyorlar yuragiga cho‘g‘ solish, ularning tuyg‘ularini uyg‘otib borish, pirovardida, butun kollektivni asar atrofiga uyushtirish, bitta maqsad sari yo‘naltirish bo‘ladi” (“Og‘ir tosh ko‘chsa”. 34). Matnlarda keltirilgan uzilgan, cho‘g‘ solish birikmalari evfemizmlar va perifraza ma‘nolarni ifodalash uchun ham ishlatilgan. Avvalo, evfemizmlar obrazli vositalarni uyushtirish uchun xizmat qila olmaydi, perifrazada esa obrazlilik kuchli. Undan tashqari, evfimizm nutqiy vosita sanalsa, perifraza esa badiiy uslubiy tushunchadir. Shu jihatdan ham, berilgan matnlarda perifraza va evfemizmni ana shu xususiyatlar yaqqol ajralib turadi, ya‘ni uzilgan so‘ziga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, unda mayin ma‘no aks etgan, cho‘g‘ solish birikmasi esa kishi qalbiga muhabbat uyg‘otishga nisbatan olingan. Yozuvchi asarlarida perifraza va metonimiyadan foydalanish ham farqlanadi. Perifraza qayta nomlanish jihatidan metonimiyaga o‘xshab ketadi, ayni paytda undan keskin farq qiladi. Chunki bu tushunchalarda nomlanishning mohiyati turlichadir. Chunonchi, metonimiyadagi nomlash bir predmetdan ikkinchisiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tsa, perifrazada qayta nom (tasviriy nom) hosil qilinadi. Masalan: - “Qani dasturxonga marhamat!”

-Ana umivalnik - O‘ktam o‘ylanib, qo‘shimcha qildi,- agar yo‘lda chang bo‘ldik desangiz, tepada dush bor” (“So‘nggi bekat”, 13)

“- Bo‘laveradi, - dedi va ayoliga qarab qo‘ydi. - Bunaqa odamlar bilan bilan ichsang, mazza qilasan! Munira tabassum qildi.” Ushbu matnlar orqali perifraza va metonimiya orasidagi farqli tomonlarni ko‘rib o‘tish mumkin. Birinchi matnda *dasturxonga marhamat* birikmasi metonimik hodisa bo‘lib, dasturxon emas, balki dasturxondagi noz-ne‘matlar nazarda tutilgan, ya‘ni ma‘no bir predmetdan ikkinchisiga ko‘chirilgan.

Ikkinchi matnda qo‘llanilgan *tabassum qilmoq* birikmasi orqali esa kulmoq so‘zining ma‘nosi kelib chiqqan. Demak, bu ko‘rinish perifraza va metonimiyaning

o‘zga tushunchalar ekanligini anglatadi. Ta’kidlash joizki, metaforada ko‘chgan ma’no predmetning doimiy nomiga aylanishi mumkin.

Masalan: Tulki - hayvon, tulki odam (tulkining ayyorligi odamga ko‘chirilgan), ilon - zaharli sudralib yuruvchi ma’nosida, ilonning zahar sochishi odamga nisbatan ko‘chirilgan, ilon odam va boshqalar. Perifrazada esa predmetlarning tasviriy vositasi yuzaga keladi. Yozuvchi asarlari tiliga xos bo‘lgan ayrim matnlar orqali ham ushbu holatni ko‘zdan kechiraylik: “Qurbon o‘zini Olimjon aka oldida qandaydir oqlash, hazratdan yanada uzoqlashish uchun: - U kishi bizga eng katta dushman- dedi va ushbu hikoyani aytib berdi”. (“Qil ko‘prik”, 16)

“Navmasbiri, otasi unga yomonlikni ravo ko‘rmaydi. Axir mehribon volidasidan ajratib olib ketar ekan, demak, u yer, bu yerdan yaxshiroq bo‘lishi kerak o‘sha joy!..” (“Qil ko‘prik”, 18)

Keltirilgan matnlarda *oqlash* va *validasi* so‘zlari berilgan bo‘lib, birinchisi metaforik ko‘chim orqali hosil bo‘lgan, ya’ni bu so‘z ma’nosida *oqlamoq* so‘zining yangi ma’noga o‘tishi (biror narsani oqlashi yoki uyni oqlashi emas) balki, o‘zini yaxshi ko‘rsatmoq ma’nosi anglashilgan. *Volida* perifrastik so‘zi kishining onasi ma’nosini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Shu kabi ko‘rinishlar perifraza va metafora o‘rtasidagi yaqinlik va farqli tomonlarini ajratib ko‘rsatadi. Shukur Xolmirzayev asarlarining boyib borishida sinonim so‘zlar ham muhim o‘rin egallaydi, ayni paytda sinonimlar perifrazadan farqlanadi. Ma’lumki perifraza funksional –semantik sinonimlarni hosil qiladi. Masalan: osmon, ko‘k, gardun va boshqalar, bular tilga xos sinonimlardir, ya’ni sinonimlar nutqning aniq va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydigan leksemalardir. Perifrazalar esa tasviriy bo‘yoqqa ega bo‘lgan tushunchalardir. Masalan, samolyot - nur uchqun, po‘lat lochin osmoni vofur.

Ko‘rinadiki, yuqorida keltirilgan barcha misollarda sinonimlarga xos xususiyatlar mavjud bo‘lib, ularni o‘zaro almashtirish mumkin. Xuddi perifraza kabi biri ikkinchisining o‘rniga qayta qo‘llaniladi.

Lekin sinonim va perifraza bir xil tushuncha emas, balki boshqa- boshqa xususiyatlardir. Ko‘rinadiki, yuqorida keltirilgan fikrlar perifraza va unga yondosh bo‘lgan hodisalarni bir-bridan ajratib o‘rganmoq lozim ekanligini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asar tili, shu jumladan, Shukur Xolmirzayev asarlari tilida uchraydigan perifrazalarni shu tarzda o'rganish ma'lum ahamiyat kasb etadi. Tildagi ko'pgina so'zlar o'z ma'nosidan tashqari, boshqa ma'noga ham ega bo'lishi mumkin. Ba'zan bunday so'zlar o'z ma'nosiga teskari bo'lgan ma'nolarni ham ifodalash uchun qo'llaniladi. Bunday so'zlarning yuzaga kelishida predmetning belgisi yoki tashqi ko'rinishi boshqa bir predmetga ko'chiriladi va shu yo'sinda boshqa ma'no shakllanadi.

Odatda bunday so'zlar boshqa ma'noga ega bo'lib, badiiy tilning taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir etadi, ana shunday hodisalardan biri sifatida o'xshatishni ko'rish mumkin.

2.2 O'xshatish asar tilining bezagi sifatida

Binobarin, o'xshatish qadimiy tasviriy vositalardan biri bo'lib, juda sodda va ko'p qo'llaniladigan badiiy-tasviriy vositadir. O'zbek tilshunosligida o'xshatishni o'rganish bilan bog'liq asarlar va maqolalar xarakteridagi ishlar mavjud. Ayniqsa, M. Mukarramov(72), R.Qo'ng'urov(132) o'xshatish xususida yetarli darajada tadqiqotlar olib borgan.

O'xshatish nafaqat tilshunoslik fanining, balki adabiyotshunoslikning ham asosiy obyekti bo'lib, adabiyotshunoslikka oid ba'zi ishlarda o'xshatishning u yoki bu tomonlari o'rganilgan.¹⁰(100, 119) Darvoqe, o'xshatish badiiy asar tilini boyituvchi vosita bo'lib, uni tadqiq etish jarayonida ifodalanish usuli, tuzilishi, asarda qo'llanish o'rni, uning tarkibiy qismlari hamda qo'llanish chegarasi haqida fikr yuritmoq lozim. Odatda o'xshatish hodisalarining orasidagi o'xshashlikka, o'xshovchi tomonlarni his qilishga asoslanadi. Shuning uchun ham, ular o'rtasidagi bog'liqlik biridan ikkinchisiga o'tgan holatdagina, to'laroq, aniqroq bo'rttirilib ifodalash orqali aniqlanadi. Xususan badiiy tilda, jumladan prozada undan o'rinli foydalanish har bir san'atkor tilining jozibadorligini, ta'sirchanligini o'quvchi tomonidan emotsional-ekspressiv qabul qilinishini, ayniqsa oson tushinilishini ta'minlaydi. Chunonchi, Shukur Xolmirzayev asarlari tiliga murojaat etilganda ijodkorning bu tasviriy vositadan unumli va o'ziga xos foydalana olganligini

¹⁰ Султон.И Адабиёт назарияси.-Тошкент:Ўқитувчи,1980.-Б.226

ko‘ramiz. Bu esa yozuvchi tilining naqadar jozibali ekanligidan dalolat beradi. Avvalo, o‘xshatish tasviriy vosita bo‘lib, unda ma’lum bir predmetning boshqa predmetga ma’lum jihatiga ko‘ra o‘xshash xususiyati ko‘zda tutiladi. Bu holat o‘xshatish vositalari tufayli yuzaga keladi. Ana shunday o‘xshatish vositalari yozuvchi ijodi uchun ham xos bo‘lib, bu esa o‘xshatishning turli xil ko‘rinishlari orqali boyib boradi.

Masalan: “Bir vaqtlar to‘qayda yovvoyi to‘ng‘izlar ham ko‘p bo‘lgan, lekin qirilib ketgan. Hozir unda chiyabo‘rilar bor, tunlari yig‘loqi boladek ovoz chiqarishadi” (“So‘nggi bekat”,19)

Keltirilgan misolda o‘xshatish priyomi nutqiy jarayon orqali shakllangan bo‘lib unda chiyabo‘rilarning ingrashiga xos holat bo‘lib kechalari tinimsiz yig‘lab chiqadigan bolalarning ovozigga o‘xshatilgan. Ushbu matnda yuqorida aytilgan fikrlar bilan birga ichki holat bilan bog‘liq hodisalar ham jonli chizilgan. Yozuvchi chiyabo‘rilar ovozlari nimaga o‘xshatishni ko‘p o‘ylagan. Bu ovoz ko‘p odamlar, adiblar tomonidan boshqa turli narsalarga o‘xshatilgan bo‘lishi mumkin. Biroq Shukur Xolmirzayev bu ovozning cheksiz, davomli ravishda, bir maromda, ingichka holatda eshitilishini aniq his qilib uni chaqaloqning, yig‘loqi bolaning ovozigga o‘xshatadi va o‘ziga xos o‘xshatish topadi. Uni biror boshqa jonivorning ovozigga o‘xshatmaydi.

Ta’kidlash joizki, o‘xshatish narsalar o‘rtasidagi umumiylikka ega bo‘lgan tushunchadir, chunki har bir narsa o‘xshatilayotganda ma’lum bir voqea-hodisa yoki biror tushunchani qiyoslangan holda o‘rganishni talab etadi. O‘sha umumiy jihatdan o‘xshatma qilish yordamida yuzaga keladi. Shuning uchun ham o‘xshatish uch unsur ishtirokida shu umumiylik natijasida yuzaga keladi: bular o‘xshatilgan shaxs yoki unsur, o‘xshatish asosi, o‘xshatish vositasi¹¹ degan fikrga asoslanib yozuvchi ijodida o‘xshatishning shu maqsadda qo‘llanish tomonlarini tahlil qilamiz.

“Uning hamisha yerga qaraydigan nursiz ko‘zlardan shu tobda o‘t chaqnar, vujudidan kuch tomardi go‘yo.” (“So‘nggi bekat”, 116)

¹¹ Лапасов Ж Бадий матн ва лисоний тахлил.-Тошкент: Ўқитувчи, 1995.-276

“Sodiqning ko‘zlari ukking ko‘zlaridek yaltirab ketdi”. (“So‘nggi bekat”, 215)

Keltirilgan misollarda uchala unsur belgilari ham mavjud. Birinchi matnda o‘xshatilgan tushuncha “o‘t chaqnar” o‘xshatish asosi “nursiz ko‘zlari” o‘xshatish vositasi esa “go‘yo”.

Ikkinchi matni ham shu tarzda ko‘zdan kechirish mumkin. O‘xshatilgan tushuncha “ukki”, o‘xshatish asosi “ko‘zlari”, o‘xshatish vositasi esa “-dek” orqali ifodalangan.

Demak, o‘xshatish umumiylikka asoslanib yuqoridagi keltirilgan shu uch unsur asosida yuzaga keladi. Shu yo‘sinda o‘xshatishning asosiy funksiyani bajarishini belgilab olish mumkin. Shukur Xolmirzayev har bir asarining tilini puxta, pishiq, go‘zal bo‘lishini ta‘minlash uchun ham o‘xshatishning ana shunday vositalaridan unumli foydalanadi. Shu sababli adib asarlarining tili ham o‘ziga xos ma‘no kasb etishi bilan yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bizga ma‘lumki o‘xshatish vositalari leksik va grammatik shaklga ega bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar Shukur Xolmirzayev ijodi uchun ham xosdir. Yozuvchi ijodida leksik vositalar quyidagi so‘zlar yordamida hosil bo‘lgan. Quyida shulardan ayrimlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

1. “O‘xshar” so‘zi yordamida hosil bo‘lgan o‘xshatishlar: “-Odamzod hayoti oxirida.. so‘nish oldidagi shamga o‘xshar emish”. “Lekin bu vaziyat vaqtinchalik esgan ko‘klam shamoliga o‘xshar edi” (“Og‘ir tosh ko‘chsa”, 127)

2. Keltirilgan gaplarda berilgan o‘xshar so‘zi o‘xshatish uchun asos bo‘lib, (o‘xshatuvchi vosita) odamzod hayotining so‘nishi shamning so‘nishiga va insonlar o‘rtasidagi muhabbat alangasining naqadar ulug‘vor ekanligi ko‘klamda esgan shamolga o‘xshatilgan.

Shunisi xarakterliki, har ikkala matni ham obrazli tushunchalar yuzaga keltirgan, ayniqsa ikkinchi matnda obrazli tushunchalar ta‘sirchan va ekspressiv tus olgan. Bundan tashqari, ushbu misolda qahramonlar xatti-harakatida yuzaga kelgan kuchli his-tuyg‘ular mavjud bo‘lib, o‘xshatish vositasi orqali bezatilgan.

Xuddi so‘zi ham yozuvchi ijodida sermahsul bo‘lib, o‘xshatish vositalarini uyushtirishga xizmat qilgan. Odatda bu so‘z o‘xshatish asosi bo‘lgan so‘zdan oldin

keladi. Quyida keltirilgan misollar orqali ushbu soʻzning qoʻllanilishiga doir ayrim xususiyatlarni koʻrib oʻtamiz: “Qalbida quvonch gupirib, xuddi oʻgʻlini koʻrganidagi kabi entikdi. Buning ustiga, bu ajib manzara uning miyasida xayollar uygʻotdi” (“Ogʻir tosh koʻchsa, 100”)

“Qumrixon opa oʻrnidan kalovlanib turib ketdi, xuddi podshoh huzuriga kirib kelgan kanizakday qoʻllarini oʻrniga qoʻydi” (“Ogʻir tosh koʻchsa”, 31)

“Ne bir tuygʻu bilan safdan ajralgisi keldi-yu, xuddi safga koʻrinmas zanjir bilan bogʻlangandek, uchishda davom etdi” (“Ogʻir tosh koʻchsa”, 83)

Ushbu soʻzlarda *xuddi* soʻzi oʻxshatishni boʻrttirish uchun qoʻllangan. Bu misollarda goʻyo oʻxshatish ikki vosita bilan ifodalangan. Yaʼni berilgan hamma gaplarda *xuddi* soʻzi ham ishlatilgan hamda boshqa vositalar kabi, –dek, (-day) ishtirok etgan. Biroq shuni aytish kerakki, ushbu gaplarda oʻxshatish vositasi kabi, -dek, -day birliklari boʻlib. Xuddi shu chegaralash va kuchaytirish-taʼkid maʼnolarini ifodalab kelgan. Buni shu gaplardagi *xuddi* soʻzini tashlab ketish orqali ham yaqqol koʻrish mumkin. Demak yozuvchi oʻxshatishni yanada boʻrttirish uchun yana ikkita vositani ketma-ket qoʻllaydi. Ammo ulardan bittasi (kabi yoki –day) oʻxshatish uchun xizmat qilsa, ikkinchisi *xuddi* uni taʼkidlash uchun xizmat qilgan. Yaʼni fakultativ birlikka aylangan. Xuddi vositasining alohida holda oʻxshatishni shakllantirishi nasrda deyarli uchramaydi. Bu narsa Shukur Xolmirzayev asarlarida ham kuzatiladi. Ammo uni oʻxshatishni taʼkidlash vazifasida qoʻllanilishi nasrda jumladan, Sh.Xolmirzayev ijodida ham koʻp uchraydi.

Demak, Shukur Xolmirzayev bu matnlarda oʻxshatishlardan foydalanishlarda va oʻxshatish yaratishda oʻziga xos mahorat sohibi sifatida koʻzga tashlanadi. Gap shundaki, yuqoridagi nutqiy matnlarda onaning xarakter xususiyatlarini oʻxshatish orqali yorqin chiza olgan. Dastlabki misolda ona qalbidagi kechinmalari, hissiyotlari nihoyatda kuchli boʻlishini hammamiz ham bilamiz, bolasini koʻrganga oʻxshatilishi ona mehrini ana shu jihatlarini aks ettirish barobarida qahramonlarning bir-biriga mehrlarini, ayniqsa, onaning ushbu qahramonga oʻz farzandi kabi samimiy qarashini toʻlaqonli aks ettirgan.

O‘xshatishning holatini, tasvirini mubolag‘ali ko‘rsatish ham Shukur Xolmirzayev asarlari tilining o‘ziga xos jihatlaridan biridir. Masalan: “Tag‘in uch kun yotib, ko‘zlari do‘layib, olti oylik kasaldek ko‘zlari do‘layib qoldi” (“Og‘ir tosh ko‘chsa”), “Shuning yegani halol, xalq xo‘jaligi vistavkasining tilla medali ham unga ona sutidek halol! (“So‘nggi bekat”, 97), “Juda ham katta, baquvvat it edi. Quloq, dumi kesilgan, mamaqaldiroq guldiraganday yo‘g‘on tovush bilan huradi” (“Og‘ir tosh ko‘chsa”,153), “Ko‘zlari odamni zo‘rg‘a ko‘radigan qisiq. Lekin ko‘ngillari daryoday keng” (“Og‘ir tosh ko‘chsa”, 178)

Keltirilgan matnlarda o‘xshatish vositalari talaygina. Jumladan, har bir o‘xshatish xarakterlidir, o‘xshatishlarning ketma-ket qo‘llanilishi nafaqat badiiy tilning go‘zal va jozibador bo‘lishiga, balki uning obrazli tushunchalarga boy bo‘lishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi ijodi keng ma’noda tahlil etilar ekan, unda adib har bir qahramonining dunyoqarashidagi o‘zgarishlarga badiiy tus berishini ko‘ramiz. Ana shunday badiiy tus berishda o‘xshatish vositasining ham alohida o‘rni bor, chunki o‘xshatish vositalari yozuvchining har bir qahramonining dunyoqarashida ro‘y bergan keskin o‘zgarishlarni o‘xshatish orqali tasvirlaydi.

Masalan: Goho xayol qizni Turgenev qahramonlari yashagan qadimiy go‘shalarga yetaklar, hayxotdek bedapoya ortida aslzodaning oppoq ustunlari yo‘g‘on, oqqushdek uyi ko‘rinar, lekin shu zahotiyuq u “Yo‘q ular ekspluatorlar, yomon der, xayolan bugungi kuniga adir ustiga qaytar, tag‘in o‘zining zamondosh yosh yozuvchilari yozgan asar voqealariga sho‘ng‘ir, nazarida, u kitoblarning qahramonlari uning tutgan yo‘lini ma‘qullayotgandek bo‘lardi.” (“So‘nggi bekat”,103)

Ushbu matn qahramonlarining dinamik xarakteri bilan ifodalangan bo‘lib, unda qahramonning dastlabki xayollar og‘ushida bo‘lishi va uning oqqush singari uyi ko‘z o‘ngida gavdalanishi, ammo qahramonning o‘tmish dunyosiga singib ketmasligi, ya‘ni o‘z yo‘lini to‘g‘ri tanlab olgan yosh kitobxonlar davrasiga sho‘ng‘ib borishi kabilar o‘xshatish usullari orqali tasvir etilgan.

2.3 Epitetlarning asarlarda qo‘llanilishi

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ko‘plab badiiy epitetlar ishlatilgan, ular ham badiiy tilning teran, jozibador, ohangdor bo‘lishini ta’minlashga xizmat qilgan.¹²

Epitet-grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, poetik izohlovchi demakdir. Epitet tilning obraz yaratish bilan bog‘liq tasvir yaratish vositasidir. Ko‘rinadiki epitet badiiy adabiyot tilining obrazli tasvirlash vositalaridan biri bo‘lib, u badiiy nutqning rang-barang bo‘lishini ta’minlaydi. O‘zbek tilshunosligida epitet bilan bog‘liq turli fikrlar yuritilgan tadqiqot xarakteridagi ishlarni ko‘rish mumkin.¹³

Epitet xususida fikr yuritilgan ushbu ishlarda tadqiqotchilar uning qo‘llanilishiga doir ifodalanish va tasviriy vazifani bajarishiga doir tomonlarni ochib berganlar. Aytish mumkinki, o‘zbek tilshunosligida epitet bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarning aksariyati uning lirik asarlarda qo‘llanilishiga doir bo‘lib, biz o‘z ishimizda epitetning nasriy asarlarda qo‘llanilishi va o‘ziga xos tomonlarini ko‘rib o‘tishni joiz deb bildik.

Darhaqiqat, epitet nasriy asarlarda ham ishlatiladi, undan yozuvchilar individual xususiyatlarni yoki xarakterlarni ochib berish maqsadida foydalanadi. Xususan yozuvchilar kishilarning yorqin timsolini berishda, tabiatning husniga, go‘zal manzarasiga e’tiborni qaratgan holda, kishining ruhiy kayfiyatlarini ochuvchi sifatlash vositalari bilan bog‘liq tasvirlar yaratadi. Shukur Xolmirzayev o‘z asarlarida ana shunday masalalarni hal etishda epitetdan ko‘plab foydalanadi, shuning uchun adib asarlari o‘ziga xos tasviriy ma’noni ifoda etganligi bilan ajralib turadi.

Jumladan yozuvchi “Og‘ir tosh ko‘chsa” hikoyalar to‘plamida Inodning yolg‘izligini, g‘am chekayotganini tasvirlar ekan, uning nochor ahvolda qolganligini hamda qorabayr otini minib toqqa borishi, u yerlarni kuzatib yurishini tasvirlashda sifatlash vositalarini ishlatadi: “Cho‘ponlar ovulida sang‘ib, marhum otasining jang qilgan yerlarini ko‘radi, zumrad qorli cho‘qqilar ostidan o‘tib, yashil o‘tloqlarda tunaydi va o‘zi sezmagani holda ko‘ngli ko‘tarilib, dardi pasayib, qishloqqa qaytadi”

¹² P.Нормуродов. Шукур Холмирзаевнинг бадий малохати, 2003, 56 б

¹³ Тўрабекова С. Язык и стиль поэмы Гафура Гуляма. Автореф. Дис. Канд. Филол наук- Ташкент, 1963.-23с

(“Og‘ir tosh ko‘chsa”, 67). Keltirilgan matnda tabiatning go‘zal manzarasini chizishda *zumrad* epiteti tasvirning yorqin bo‘lishiga ham xizmat qilgan.

Odatda epitet (sifatlash) poetik aniqlovchi hisoblanib, fikrga aniqlik, tasvir etilayotgan voqea-hodisa, narsa-buyumga xos jihatlarni tasvirlab beradi. Shuningdek, inson xatti-harakatidagi holatni tavsir etishda badiiy estetiklik hadya qiladi.

O‘zbek tilshunosligida epitetni o‘rganish borasida talaygina ishlar qilingan bo‘lib, unda uning poetik aniqlovchi sifatida tutgan o‘rni borasida fikr-mulohazalar yuritiladi. Zero, epitetning badiiy nutqda ishlatilishi har qanday asar tilining rang-barangligini ta‘minlaydi. Uning ta‘sirchan, jozibador va ohangdorligini belgilaydi. Shukur Xolmirzayev ijodini o‘rganar ekanmiz, uning epitet vositalaridan unumli va o‘rinli foydalanganligidan voqif bo‘lamiz. Ta‘kidlash joizki, epitetlar obrazlarga jilva beradi, obrazlilikka xos xususiyatni bo‘rttirishda esa badiiy ta‘sirchanlikni oshiradi. Epitetga xos bo‘lgan bunday jihatlari Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilida ham uchraydigan jihatlardan biridir. Ma‘lumki, badiiy nutqda epitetlar va ularning qo‘llanish imkoniyatlari turlicha. Xususan, nazm va nasrda bu hodisa farqlanadi. Nazmda she‘riy ritmning ta‘sirchanligini oshirish uchun ishlatilsa, nasrda tabiat hodisalari, narsa-buyum, predmetlarga xos xarakterni, shuningdek, insonlarga aloqador holatlarning badiiyatini oshirish uchun ham ishlatiladi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilini o‘rganish jarayonida shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, yozuvchi aynan epitet vositalaridan badiiy ta‘sirchanlikni, ifodaviylikni hamda obrazlilikni tasvirlash maqsadida foydalanadi va o‘quvchi diqqatini tasvir etilayotgan voqea-hodisaga jalb etadi. Masalan: “Shunda uning havoda sal namlik sezildimi - institutga qavat-qavat kiyinib, boshiga *sariq itning terisidan tikilganday* paxmoq telpagini bostirib, bo‘yniga sharfni aylantirib o‘rab borishini esladi”. (“Navro‘z, Navro‘z”, 110)

Ko‘rinadiki, epitetlar badiiy tasviriy vositalar sifatida obrazlilikni yuzaga kelishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shukur Xolmirzayev asarlarida voqea-hodisaga badiiy tus berish jarayonini tasvirlash vositalarisiz, jumladan epitetlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Yuqorida keltirilgan matndagi kabi, quyida

berilayotgan misoldagi ham epitetning yozuvchi ijodida go‘zal ifodalar xosil qilganini ko‘ramiz: “Lekin bu kulcha yuzli, yonoqlari xiyol chiqiq, ko‘zlari xiyol qisq, oppoqqina, chehrasida hayotbaxsh bir nur yog‘ilib turgan qiz Hubbijamol edi”. (“Bodom qishda gulladi”, 310) Bu matnda ham yozuvchi yuqoridagidek go‘zal tasvirlar yarata olgan. Ayniqsa Hubbijamolning husnidagi go‘zallikni, yuzidagi tabassumni tasvir etishda kulcha yuzlik, yonoqlari xiyol chiqiq epitetlaridan foydalangan va yorqin timsol yarata bilgan.

B. Yo‘ldoshev Said Ahmad asarlarida qo‘llanilgan epitetlar va ularning xarakterli tomonlarni, qahramonlar dunyo qarashiga xos ko‘rinishlarni tahlil etar ekan: “Qahramonlar qiyofasi tasvirini yaratishda sifatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Said Ahmad asarlarida sifatlash yo‘li bilan salbiy obrazlarning ajoyib qiyofalari yaratilgan” - deydi.¹⁴

2.4. Asarlarda metaforalarning o‘rni

Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilida metaforalar ham ishlatilgan. Odatda metafora ko‘chimning bir turi sifatida tashqi o‘xshashlik, aniqrog‘i, narsa-buyum, predmetlarga xos, shuningdek, insonlar xatti-harakati bilan bog‘liq holatni biridan ikkinchisiga qiyoslash, o‘xshatish asosida hosil qilinadi. Badiiy nutqda metaforadan foydalanish o‘ziga xoslik kasb etib, asar tilini ta’sirchan, jozibador bo‘lishini ta’minlaydi. Shukur Xolmirzayev badiiy nasri tilida obraz yaratish uchun qo‘llaniladigan muhim vositalardan biri metaforadir.

“Tilning haqiqiy go‘zalligi, - deb yozadi M.Gorkiy,- aniqlik, ravonlik, so‘zlarning ohangdorligi bilan bilan vujudga keladi: bular kartinalar, xarakter, kitobning g‘oyasini shakllantiradi”¹⁵

Xuddi shu fikr metaforaga ham xos bo‘lib, tilning go‘zal hamda aniq bo‘lishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Metafora badiiy tilda nutqning obrazli bo‘lishi, unga o‘ta ekspressiv tus berishi, narsa va predmetlarning umumiy o‘xshashligiga asoslanuvchi ko‘chim hisoblanib,

¹⁴ Йўлдошев Б. Стилистический анализ художественной прозы-79-81б

¹⁵ Горький А. М. Адабиёт ҳақида.-Тошкент.:Ўқитувчи,1962.-Б.239

bir predmetning yoki narsa hodisaning ikkinchisiga qiyoslash asosida ma'noga ko'chirish demakdir.

O'zbek tilshunosligida metaforaga bag'ishlangan alohida asarlar ham mavjud. Biroq badiiy matnning lisoniy tahlili alohida masala sifatida o'rganilmagan. Aslida metafora nutqqa obrazlilik, emotsiya berish maqsadida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'zlar va iboralarning ko'chma ma'noda ishlatilishi demakdir. Binobarin, metaforik munosabat ma'lum sharoitda, ma'lum voqea-hodisaning tasvir etilishini, ikki predmet yoki hodisa o'rtasidagi umumiylikka asoslangan holda o'rganiladi. Ular o'rtasida umumiy ko'rinishlar, xislatlar biridan ikkinchisiga ko'chiriladi. Ana shunday metaforik hodisalar yozuvchi ijodiga ham xos bo'lib, unda narsa va predmetdagi tushuncha to'g'ridan to'g'ri biridan ikkinchisiga ko'chirilganini ko'ramiz. Bunda asosan obrazli tushunchalar yuzaga keladi. Masalan: "Qovurdoqni yeb bo'lib choy ichishdi. Keyin tashqariga gulxan yoqib o'tirishdi. Anavi qora ko'lmakda yermoyi bor ekan. Bir archa shoxini botirib olib, o'tga qo'yilsa, talay vaqt yonib turadi" ("Bodom qishda gulladi", 109) Ushbu matnda *yermoyi* so'zi metaforik ko'chim hosil qilish uchun ishlatilgan bo'lib, bu so'zlarda ma'no anglatish tushunchasi o'zgachadir. Chunonchi yermoyi yer foydali qazilma boyligi hisoblangan neft tushunchasini ifodalash uchun ham ishlatilgan.

Odatda turli xildagi jonivorlar, hayvonlar nomi bilan bog'liq metaforalar ham shakllanishi mumkin. Bunday hollarda jonivor, hayvondagi belgi, xususiyatlar inson xarakteriga ko'chib o'tadi, ba'zan ularning salbiy tomonlari ham shu asnoda insonlardagi salbiy munosabatlarni ifodalaydi. Ana shunday metaforik qo'llanishlarni Shukur Xolmirzayev ijodida ham ko'rish mumkin. Masalan: "Ey, kalamush! Chiqmaysanmi, berman?! - dedi Azim so'pi do'konga bosh suqib, Usmon kosib eshikdan mo'raladi." ("Qil ko'prik", 27) Metaforalar salbiy ma'no ifodalash bilan birga, ijobiy ma'nolarni ham ifodalaydi. Ba'zida narsa va predmetlarning yoki hayvonlarning nomi bilan bog'liq hodisalar metaforik so'zlar orqali insonga ko'chib o'tishi mumkin. Bu kabi metaforalar ham Shukur Xolmirzayev ijodida o'z ifodasini topgan.

“- Seni birovga o‘xshatyapman, chirog‘im? -dedi asta. Qurbon dangal gapga o‘tganini anglamay qoldi” (“Qil ko‘prik”, 103)

Keltirilgan matnda *chirog‘im* so‘zi metaforik munosabatni yuzaga keltirgan. Chunki aslida kishini, ya‘ni biror kimsani o‘ziga yaqin munosabati shu so‘z orqali o‘z ifodasini topgan.

Ma‘lumki, metaforada o‘xshashlik asosida ko‘chim hosil qilinadi. Unda predmetlar yoki hodisalar orasidagi tashqi o‘xshashlik asosida ma‘nolar (odamning tumshug‘i, tog‘ning tumshug‘i) bilan predmet va uning harakati nomlarning insonga nisbatan, uning tabiati, xarakteri, belgilarni xarakteriga nisbatan ishlatilishi (eshak, ho‘kiz, bulbul, qo‘zichoq) kabi so‘zlarning metaforik qo‘llanilishida katta farq bor.

Bizningcha, har ikkala fikrda ham metaforik munosabatlar to‘g‘ri ifodalangan. Aniqrog‘i, tildagi ko‘pgina lug‘aviy birliklar ko‘chim hosil qiladi, ularning aksariyati o‘xshab ketadi. Shuning uchun ham, yuqorida keltirilgan fikrlarga e‘tiborni qaratmoqchi bo‘lsak, birinchi fikr metaforaning polesemantik ma‘noni ifoda etganligini taqozo etsa, ikkinchi fikr esa aynan metaforik munosabatga qaratilgan. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda yozuvchi ijodida qo‘llanilgan metaforalarning ana shu tomonlarini tahlil etamiz: “Oqibat, Ramazonboy, qizim olib ketilgan tomonni ko‘rsatinglar dedi. Yana norxo‘roz yo‘l boshlovchi bo‘lib, Osmon o‘parning tumshug‘idan o‘tkazib qo‘ygan edi” (“Qil ko‘prik”, 352). “Piyoda qaytamiz, charchasangiz mana bu eshakning ustiga minasiz... A? Eson! Yomon ekansan-ku! Xayriyat-e” (“Og‘ir tosh ko‘chsa”, 28)

Keltirilgan misollarda *tumshuq va eshak* so‘zlari metaforik holatni vujudga keltirgan bo‘lib, ular o‘rtasida bir-biridan farq qiladigan tomonlar mavjud. Birinchi holatda so‘zning metaforik qo‘llanilishi borliq hodisaning ma‘lum bir ko‘rinishini tashqi o‘xshatishlar asosida, ya‘ni insonning tumshug‘i asosida tog‘ning tumshug‘i ifodalangan. Ikkinchi o‘rinda metaforik qo‘llangan so‘z nutq jarayonida so‘zlovchining nutq obyektiga bo‘lgan munosabatini yorqin tarzda ifodalash uchun, ya‘ni eshakdan odamga ko‘chim orqali o‘tilgan holatni ifodalagan. Ayni chog‘da ikkinchi matnda emotsional – ekspressiv munosabat kuchli ifodalangan. Badiiy nutqda o‘simlik, uy-ro‘zg‘or buyumlari, turli predmet nomlari, ozuqa nomlarini

anglatuvchi leksemalar ham metaforik ma'noda emotsional-ekspressiv bo'yoq kasb etadi. Masalan "Bo'ritosh opaning bo'yi baland, xipchadan kelgan, bodomqovoq" ("Og'ir tosh ko'chsa", 60) "Ikromjon shunday "ba'zan" paytlarda shirin o'tgan damlari, Tursunoy bilan kabutarlar bilan g'udullashib gaplashganlari, ko'ngliga taskin beradi." ("Og'ir tosh ko'chsa", 124)

Keltirilgan misollarda *bodomqovoq*, *shirin so'zlari* metaforalar bo'lib, bular matnda ma'lum predmet va ozuqaning nomini anglatish uchun qo'llanilgan. Chunonchi *bodomqovoq* so'zi semasida inson qovog'i bodom qovog'iga nisbatan olingan bo'lsa, *shirin* so'zi orqali hayotning yaxshi onlari ifodalangan. Odatda tabiiy ofatlar ma'nosini ifodalaydigan shamol, bo'ron, to'fon so'zlari ham ko'chma ma'noda qo'llanishi mumkin. Bu kabi so'zlarning ko'chma ma'noni ifoda etishi Shukur Xolmirzayev ijodi uchun ham muhim bo'lib, yozuvchi asarlari tilining ta'sirchan bo'lishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi: "Shundan keyin.. U xabar bu yoqqa shamol bo'lib, keyin bo'ron bo'lib esdi." ("Qil ko'prik", 56)

"Ikromjonning hamon boshi og'rib turar, yuragida olato'fon, lekin vujudida g'alati bir g'ayritabiiy shijoat poydo bo'lgan edi" ("Og'ir tosh ko'chsa", 135)

Misollarda *shamol*, *bo'ron*, *to'fon* so'zlari sodda metaforalar hisoblanib xabarning tez yetib kelganligi urush ma'nosi hamda yuragidagi g'am-alam ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qilgan. Yovvoyi qushlar, uy parrandalari nomlarini anglatuvchi ko'pgina leksemalar metaforik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ko'pgina holatlarda qushlarga xos ba'zibir salbiy xatti-harakatlardagi ma'noni ifodalashda munosabat yuzaga keladi. Bunday holatlarda ekspressiv-emotsionallik yanada kuchayadi hamda badiiy ta'sirchanlik oshib boradi. Bunday qo'llanishlar ham Shukur Xolmirzayev ijodi uchun xarakterli bo'lib, quyida berilgan matn orqali oydinlik kiritamiz: "-Chiq. -Qayum kameraga ko'z solib, iziga qaytdi.- Yerdan yotibsan. Senga ko'rpacha solib bergan edim.. E, qurib ket! Sig'sa, ichginda! O'zing tuppa-tuzik yigitsan!.. E! Hamrohing qarg'a bo'lsa, yeganing axlat bo'ladi..." ("Og'ir tosh ko'chsa", 134).

Keltirilgan matndagi qarg'a so'zi semantikasida salbiy ma'no ifodasi mavjud bo'lib, hamrohining yomon ekanligiga ishora qilingan. Demak, bu o'rinda

qahramonning tinglovchiga munosabatining salbiyligi qarg'a so'zi orqali ochib berilgan. Ayni paytda, so'zlovchining bu holatdan achinayotganini hamrohining o'ziga ham yomonlik olib kelayotganligi ishorasi bor. O'z navbatida yozuvchining til imkoniyatlaridan samarali foydalanganini e'tirof etish lozim.

Metafora – badiiy nutqda turli xil maqsadlar yo'lida ishlatiladi.

Xususan, bu ko'chim turi badiiy tilning qimmatini ¹⁶yanada oshirish maqsadida, belgini yashirish yoki ochiq maqsadda ishlatish uchun ham ishlatiladi. Jumladan, yashirin belgi asosida yuzaga kelgan metafora individual uslubga xos bo'lib, unda tasviriy bo'yoqdorlik kuchli bo'ladi. ¹⁷(58, 27)

Ma'lumki, individual metaforalar badiiy til uchun muhim bo'lib, badiiy o'yni oldin ifoda qilmagan shaklda ifodalash imkonini beradi. Individual metaforalarga xos muhim xususiyat yana shundaki, bir tushuncha bir ijodkor orqali bir necha ko'rinish orqali ifodalanadi. Individual metaforalarga xos bunday xususiyatlar Shukur Xolmirzayev qalamiga mansub ham bo'lib, uning ba'zi bir tomonlarini o'rganib chiqish fikrga yanada oydinlik kiritadi. Masalan, sevgi ma'nosini ifodalashda yozuvchi *buyuk bir nima, qalbida g'alayon* kabi iboralarni qo'llash orqali ham individual metaforalar hosil qiladi. Bu esa yozuvchining individual nutq uslubiga ega ekanligidan dalolat beradi. Quyida keltirilgan misollar orqali ham metaforik qo'llashning shu tomonlarini ko'zdan kechiramiz: "Biroq o'g'li shabadadan junjikib, bo'yniga talpinar ekan, o'rtalarida boshqa buyuk bir nima turganini his qilardi-yu, mashina sohil bo'ylab jilar ekan, endi Hanifa bilan vidolashayotganini o'yladi" ("Og'ir tosh ko'chsa", 107)

Metafora ko'chim turi sifatida ko'chimning boshqa turlariga ham o'xshab ketadi. Jumladan o'xshatish va metafora o'rtasida umumiylik borligi, ayni chog'da ularning bir-biridan farqi ham bor. Ba'zi manbalarda ularning o'xshash va farqli ko'rinishlari tahlil etilganini ko'ramiz.

Bular o'rtasida yaqinlik va farqli tomonlarni yanada aniqroq ta'kidlash maqsadida diqqatni yana quyidagilarga qaratish mumkin. Ta'kidlash joizki,

¹⁶ Калинин А.Б. Лексика русского языка.- М.: МГУ, 1978.-С.24-27

¹⁷ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш.- Тошкент: Фан, 1976.-Б.10-116

o'xshatish uch asosdan iborat bo'lsa, metafora faqat o'xshatilgan narsaning ma'nosini izohlaydi, xolos.¹⁸

O'xshatishda qiyoslanuvchi narsa yoki hodisa ifodalanayotganda so'z to'g'ri ma'noda qo'llaniladi, metaforada esa ko'chim yuzaga keladi. Xullas, metafora va o'xshatish orasidagi bu farqlarni ochib berish ham yozuvchi ijodini o'ziga xos uslubini tahlil etishda katta ahamiyatga ega desak, xato qilmaymiz.

Binobarin, metaforalar ham badiiy tilning go'zal, nafis bo'lishi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi tasviriy vositadir. Undan har bir san'atkorning unumli foydalanishi badiiy asar tilining yanada jozibador bo'lishi uchun keng imkoniyat yaratishi, shubhasizdir. Shu jihatdan ham yozuvchi ijodida qo'llanilgan metaforalarni ko'zdan kechirar ekanmiz, unda adibning so'z qo'llashdagi badiiy mahorati oshib borganligining guvoxi bo'lamiz. Ayni paytda, qahramonlari nutqidagi ayrim nuqsonlar metaforik yo'l bilan bartaraf etilganini ko'ramiz.

Bundan tashqari yozuvchining har bir fikrni obrazli vositalar bilan boyitish uchun ham metaforalarni qo'llashga alohida ahamiyat berganini kuzatdik.

Avvalambor, Shukur Xolmirzayev nihoyatda o'tkir did va zehnga ega bo'lgan ijodkordir. Uning har bir asarini o'qigan kitobxon olam-olam shodlik va limmo-lim quvonchga to'ladi. Yozuvchining asarlari dunyosidagi o'ziga xos ijodiy teranlik, yetuklik sirlaridan voqif bo'ladi.

Shukur Xolmirzayevning ana shunday teran so'z sohibi bo'lishi, uning ulkan san'atkorga aylanishida, shubhasiz, ijod sahifalari sabab bo'lgan.. Yozuvchi asarlari tilini, xususan, hikoyalari badiiy til sirlarini o'rganish jarayonida shu narsaga amin bo'lamizki, muallif umumxalq o'zbek tili imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanadi va har bir asari tilini pishiq, ixcham, mukammal bo'lishiga erishadi. Xususan, yozuvchi o'zbek tili lug'aviy va uslubiy imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Bu, shubhasiz, Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilining jozibador, ohangdor hamda ta'sirchan bo'lishini ta'minlagan.

¹⁸ P.Нормуродов. Шукур Холмирзаевнинг бадий малохати,2003, 53-б

Shukur Xolmirzayev o‘zbek tili tasviriy vositalaridan, jumladan, o‘xshatish, sifatlash, metafora, badiiy takrorlardan imkon qadar foydalanishga e’tibor qaratadi. Pirovardida asarlari tilining serbo‘yoq va serjilo bo‘lishiga erishgan.

Ma’lumki, Shukur Xolmirzayev xalq tiliga ko‘plab murojaat etadi, xalqona ohang va xalqchil yondoshuv muallif asarlari tilini har tomonlama go‘zal va nafis bo‘lishini ta’minlaydi.

Yozuvchi hikoyalari tilida og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan vositalar talaygina ekanligi bilan xarakterlanadi.

Odatda, og‘zaki nutq vositalari tilning shunday bir ko‘rinishiki, ular adabiy til va uning normalariga deyarli mos kelmas ekan, biroq ayrim og‘zaki nutq vositalari badiiy til uchun xarakterli jihatlarni yoritib berishga xizmat qiladi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilini o‘rganish tom ma’noda ijodkorning badiiy talant va iqtidorini aniqlash imkonini beradi. Vaholanki, yozuvchi mahoratini belgilovchi omillar talaygina. Yuqoridagi fikr-mulohazalarga tayangan holda quyidagi umumlashmalarga kelindi:

1. Shukur Xolmirzayev umumxalq o‘zbek til imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanadi. Shubhasiz, bu jarayon yozuvchi asarlari tilining rang-barangligini ta’minlashga xizmat qilgan.

2. Shukur Xolmirzayev har bir so‘zdan, so‘z vositasidan unumli va o‘rinli hamda maqsadga muvofiq foydalanadi. Shubhasiz, bu jarayon muallif hikoyalari tilini sodda, ravon, qisqa, ixcham va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi

3. Shukur Xolmirzayev o‘zbek tili tasviriy vositalarini ishlatishga alohida ahamiyat beradi, shuning uchun ham asarlari tili badiiy ko‘lamdorlik nuqtayi nazaridan ko‘tarinkilik, tantanavorlik ruhi bilan sug‘orilgan.

4. Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilini xalqchil bo‘lishini ta’minlashda og‘zaki nutq vositalarining alohida o‘rni bor. Chunki yozuvchi jonli so‘zlashuv til vositalarini ishlatishga alohida ahamiyat beradi. O‘z navbatida og‘zaki nutq vositalari muallif asarlari tilining xalqona bo‘lishiga zamin yaratadi.

Shunday qilib, Shukur Xolmirzayev mohir so‘z ustasi sifatida umumxalq o‘zbek tili imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanadi. Bu esa asarlari tilining

serjilo, serbo‘yoq bo‘lishiga imkoniyat yaratgan. Xususan, hikoyalari tili har tomonlama aniq, puxta, ixchamligi bilan xarakterlanadi. Ayni zamonda yozuvchining o‘tkir so‘z sohibi ekanligi shu orqali aniqlanadi. Umuman olganda, yozuvchi hikoyalari tilini bundan-da keng va atroflicha o‘rganish lozim. Ta’kidlash joizki, f.f.n. R.Normurodov “Shukur Xolmirzayevning badiiy mahorati” nomli monografiyasi bilan Shukur Xolmirzayev hikoyalari lingvopoetikasi tahlili borasida izlanishlar olib borganlar. Bu izlanishlar natijasida adib asarlari tilining naqadar shirali, ravon, yoqimli hamda ta’sirchan ekanligining guvohi bo‘lamiz. Shunga ko‘ra yozuvchi hikoyalari tilining nozik qirralarini o‘rganish galdagi vazifalar sirasiga kirishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev ijodiga xos metaforalarni har jihatdan tahlil etish va o‘rganish, ijodkorning o‘ziga xos individual nutq uslubiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Bob uchun xulosalar

1. Shukur Xolmirzayev har bir so‘zdan asar tilini jozibador, ohangdor, serjilo bo‘lishini ta’minlashni nazarda tutib foydalanadi, bu esa yozuvchi asarlari tilining ta’sirchanligini oshiradi.

2. Yozuvchi hikoyalari tilida so‘z o‘z ma’nosida kelganda ham, ko‘chma ma’noda qo‘llanganda ham asar tiliga joziba beradi, asar tilining o‘ziga xosligini ta’minlaydi.

3. Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilini qunt bilan o‘rganar ekanmiz, unda yozuvchining asarlari tiliga xos qisqalik, ixchamlik, lo‘ndalik kabi xususiyatlar ham kuzatilishini guvohi bo‘ldik. Bu orqali yozuvchi tejamkorlikka erishadi, ya’ni qisqa fikrlar orqali voqea-hodisani bo‘rttirib, qabariqlashtirib hamda ma’lum ma’noda tushunarli bo‘lishiga erishadi.

4.. Shunday qilib, Shukur Xolmirzayev serqirra yozuvchidir. U xalq tili va uning noyob durdonalaridan unumli va o‘rinli foydalana olgan talantli adibdir. Shuning natijasida yozuvchining asarlarini o‘qish va o‘rganishda o‘quvchiga havas uyg‘onishi, tabiiydir.

Xulosa shuki, Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilida ishlatilgan har bir soʻz va ifoda vositasi mumkin qadar asar tilini boyishiga, serjilo va serboʻyoq boʻlishiga zamin yaratgan.

III BOB. SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA DIALEKTIZMLAR VA ULARNING KOʻRINISHLARI

3.1 Dialektizmlarning adabiy tilga munosabati. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili normalarining shakllanishi va mustahkamlana borishi uzoq va o‘ziga xos tarixga ega.

O‘zbek adabiy tili yaratilgandan shu kunga qadar bu tilda yuzaga kelgan ko‘plab asarlar tufayli o‘z normalarini turli xil taixiy davrlarda takomillashtirib keldi. O‘zbek adabiy tilining rivoji va stabillashuvi ko‘p jihatdan unga tayanch bo‘lgan o‘zbek shevalarini aniqlab olishga bog‘liq edi. Shu jihatdan o‘zbek adabiy tilini umumxalq tilga yaqinlashtirish tadbirlari ko‘riladi.¹⁹

Keyinchalik o‘zbek adabiy tili asosiga markaziy shahar shevalari olinib singarmonizmdan voz kechish tarixan umumo‘zbek adabiy tilining rivojlanishida shahar shevalariga tayanish adabiy til manbalarini to‘g‘ri aniqlashga yordam berdi.²⁰

O‘tmishda genetik jihatdan turlicha bo‘lgan o‘zbek xalqi shevalarining birlashishi uchun xalqining iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalishi keng yo‘l ochib berdi.

Hozirgi vaqtda dealektal xususiyatlarning tekislana borishi faqat qo‘shni shevalarning o‘zaro munosabati natijasini emas, balki adabiy tilining atroflicha samarali ta’siri natijasida ro‘y bermoqda. Bu hol esa o‘zbek xalqi hayotida ro‘y bergan yangi munosabatlarning o‘sishi, kengayishi bilan ham bog‘liqdir.

Hozirgi zamon sharoitida an’anaviy va tor dialektal xususiyatlarning asta-sekin yo‘qola borishi, yangi til yuzaga kelishi, xalqimiz orasida yangicha moddiy va ma’naviy kengaya borishi natijasida ro‘y bermoqda. Sheva va dialektlarga yangi faktlarning kirishi adabiy til ta’sirida yanada kuchaymoqda.

Adabiy til shakllari sheva yoki dialektdagi o‘ziga o‘xshash dialektal shakllar o‘rnini egallab, ba’zan esa dialektal shakllarning o‘zi bir oz o‘zgargan shaklda adabiy tilga yaqinlashadi. O‘zbek adabiy tili shu tilda so‘zlashuvchi o‘zaro aloqa vositasi emas, rivojlangan o‘qish va o‘qitish tili ijtimoiy-siyosiy va badiiy adabiyot tili, vaqtli matbuot tili darajasiga erishdi. O‘zbek xalqi munosabatlarning barcha sohalarida amal qila oladigan umumxalq o‘zbek milliy tiliga aylandi.

¹⁹ Шоабдурахмонов.Ш Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари, Тошкент, 1961й, 13-14 б

²⁰ Шоабдурахмонов. Ш Ўзбек адабий тилининг тараққиёти. “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 1977 йил, 4 сон, 3-бет

Shu nuqtayi nazardan, 1982 yilda qabul qilingan Qonunning adabiy tilni boyitish haqidagi moddalarini hisobga olsak, adabiy til va dialektlar munosabati, tilni leksik jihatdan boyitishda shevalarning (jonli xalq tilining) ahamiyati masalasi alohida e'tibor talab e'tadi. Adabiy til nutq madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, ma'lum nutq jarayonida til normalariga rioya qilish, ifodalilikka intilish, til imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanishni nazarda tutadi.

Adabiy til hamma vaqt ma'lum ijtimoiy zamin va nutq amaliyotiga mos keladigan omilga tayanchga – dialektlarga suyanadi. O'zbek adabiy tilining ham ijtimoiy zaminining kengayishi va mezonlarning aniqlab olinishi, shu tilning dialektlari hisobiga bo'ldi. Hozirgi kunda dialektlar yaxlit sistema sifatida o'z vazifasining ma'lum darajada torayib qolganini ko'ramizki, endi ular interdialektlar sifatida o'rganilishi kerak bo'lib qoldi. Adabiy tilning hozirgi taraqqiyot bosqichida uni normallashtirmagan nutqqa zid qo'yish mumkin. Adabiy til ijtimoiy hayotning mahsuli, u faqat o'zbeklar idrokida jamg'arilgan ruhiy boyliklarni mustahkamlabgina qolmay, balki uni tushunarli va umumiy, ommabop qiladi. Shuning uchun adabiy til mazkur tilning egasi bo'lgan xalq uchun umumiy til darajasiga ko'tarilmog'i kerak bo'ladi.

Adabiy til tilning sayqallangan shaklidir. Xalq tili va adabiy til deganda, biz "xom" va so'z ustalari tomonidan qayta ishlangan, normallashtirilgan tilni tushunamiz. Tilni qayta ishlash, bu, umumiy tilga loyiq bo'lgan va norma bo'ladigan til materiallarini, vositalarini tanlashdir. Tillar taraqqiyotining asosiy qonuniyatlaridan biri tillarning o'zaro munosabatidir. Bu qonuniyatni adabiy til va shevalarning munosabatiga ham tadbiiq etish mumkin. Shu ma'noda tilni boyitishda dialektlar muhimdir.

Adabiy til ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli sifatida vujudga keladi va u umumxalq tilida yaratilgan ma'naviy boyliklarni tartibga solib, normallashtirib, mazkur til egasi bo'lgan xalq uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

O'zbek adabiy tilini ham xalqimizning ehtiyojini qondiruvchi umummilliy va xalqchil til darajasiga ko'tarmoq uchun uni shu til egasi bo'lgan xalqning barcha so'zlari va imkoniyatlari bilan boyitib kelajak avlodlarga o'zbek tilini har

tomonlama mukammal, o‘z milliy ruhini saqlagan, leksik jihatdan boy bir til qilib qoldirishimiz kerakki, u asrlar osha ham o‘z ko‘rki va tarovatini namoyon qila borsin.

O‘zbek xalqi jonli tilida adabiy tilda uchramaydigan, adabiy tilga kiritilsa, uning lug‘at xazinasini boyitish mumkin bo‘lgan adabiy tilda muqobili bor, lekin ehtiyoj tug‘ilganda uslubiyat uchun qo‘llana olishi mumkin bo‘lgan, adabiy tildagi o‘xshash so‘zdan ma’nosiga ko‘ra farq qiladigan o‘ziga xos ma’noli so‘zlar, adabiy til tasarrufiga olinishi kerak bo‘lgan minglab so‘zlar bor. Bunday so‘zlarni adabiy tilga kiritish va tilning lug‘at tarkibidan o‘rin olishini ta’minlash kerak. Xalqning jonli tili adabiy kitobning asosi va samarali omilidir. Chunki o‘zbek kalomini tuginmas koni shevalardir.

Dialektal so‘zlar badiiy asarlarda ham qo‘llanilishi. Ya’ni joy koloriti, personojlar tili xususiyatlari, nihoyat uslub rang-barangligini ta’minlashi uchun qo‘llanilmog‘i lozim.

Shevalar o‘zbek tilining so‘z xazinisidir. Shu sababli yozuvchi shoirlar o‘z asarlarida sheva so‘zlardan turli uslubiy holatlar uchun ham ishlatiladi.

Gap badiiy asarlarda dialektizmlarning tutgan o‘rni, vazifasi haqida borar ekan, avvalo, dialektizm termini va uning ma’nosi, dialektizmlarning turlari va adabiyotshunoslikda dialektizmlarga berilgan ta’riflar, munosabatlar haqida fikr yuritishga to‘g‘ri keladi.

Avvalo shuni aytish kerakki, shoir va yozuvchilar o‘z asarlari tilida biror dialektga xos so‘z va iboralardan turli maqsadlarda foydalanib keladi.²¹ Bu masalada alohida nomzodlik dissertasiyasi himoya qilingan va maqolalalar e’lon qilingan. Aslida dialektal so‘z nima, tilning leksik sostaviga kirgan boshqa so‘zlardan uning qanday farqi bor?, degan savol tug‘iladi. Bu haqdagi masala unchalik murakkab ko‘rinmasada, uni izohlash haqida turlicha qarashlar mavjud ekanligini ko‘ramiz.

Dialektizmlar bu mahalliy xalq tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlardir. Bunday qarashlar hatto chet el lingvistik qarashlarda ham o‘z ifodasini topgan. Garchand

²¹ Шоабдурахмонов. Ш. "Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари" Тошкент, "Фан", 1961, 5-бет

bunday qarash haqiqatga bir muncha yaqin bo'lsa ham, ancha umumiy va noaniqdir. Shu sababdan bunday tarzda qo'yilishi ba'zan badiiy adabiyotda dialektizmlarni qo'llashning uslubiy xususiyatlari to'g'risida noaniq nazariy fikrlar ham bor. Dialektizm atamasi tilshunoslik fanida ham to'liq va o'zining aniq mazmunini ifodalaydigan ta'rifga ega emas..

Masalan, professor U.Tursunov va boshqa mualliflar hamkorligida chiqqan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida dialektizmlarga "ishlatilish doirasiga ko'ra chegaralangan til hodisalari" deb ta'rif berilgan. Dialektizmlar umum tilga emas, balki, shu umum tilning mahalliy ko'rinishi bo'lgan dialektizmlargagina xos bo'lgan hodisadir.

Shunga ko'ra ular odatda biror dialektlarning vakillari nutqida ishlatiladi., ko'pincha boshqa dialektlarning vakillariga, shuningdek adabiy nutqqa ham xos bo'lmaydi²²..

M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulovlar hamkorligida "O'zbek tili" darsligidagi "Yagona milliy tilda ishlatilmaydigan, ayrim mahalliy dialektlarga xos bo'lgan so'z dialektizm deyiladi", degan ta'rif berilgan.

Umumxalq o'zbek tilining mahalliy ko'rinishlari dialektizmlar deyiladi,²³ kabi ta'riflar ham mavjud. O'zbek tilshunosligida mavjud bo'lgan bu ta'riflar aslida mohiyat jihatdan bir-biriga yaqin turadi.

Bunday ayrim dialekt va shevalarga xos bo'lgan va adabiy til tarkibida ishlatilmaydigan so'zlar dialektizmlar deyiladi degan xulosaning kelib chiqishi aniq bo'lib qoladi. Dialektizmlar ma'lum bir dialektga xos bo'lgan til birligidir. Uni adabiy tilda ishlatish, ishlatilmasligini o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi. Bu masalada rus va turkiy xalqlar tilshunosligida ham turlicha qarashlar bor. Abakumov .S.I fikricha, mahalliy shevalarga xos bo'lgan so'zlarni adabiy til tarkibida qo'llanilishini dialektizmlar deb atash kerak.

Shuningdek, "Rus tilining izohli lug'ati"da: "Dialektizmlar – adabiy til tomonidan biror-bir dialektdan o'zlashtirib olingan so'z va nutq birligidir".

²² Файзуллаев.Б. Дialektizmlar va ularning badiiy adabiyotdagi ўрни "Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 1972,4-сон, 35-бет"

²³ Қосимов.К, Икромов.Р "Ўзбек тили", Тошкент,1978,45б

Rus tilshunoslaridan Abakumov S.I va Ushakov D.Nlar bu fikrga e'tiroz bildirgan holda adabiy til tomonidan o'zlashtirilgan va uning tarkibida qo'llaniladigan, biror mahalliy shevaga xos bo'lgan so'z va iboralarni dialektizmlar deb qaraydilar.

Shuningdek, Vinogradov V.V, Avanesov, Kalinin.A va boshqalar adabiy til tarkibida uchraydigan dialektal elementlarni dialektizmlar nomi bilan ataydilar.

Rus va turkiy tillarda ham badiiy asarlar tilida uchraydigan dialektizmlar bo'yicha ishlar olib borilgan. Masalan, rus tilshunosligida badiiy asarlar tilidagi dialektizmlarning xususiyatlariga to'xtalib, adabiy tilning tasviriy vositalarini to'ldiruvchi va boyituvchi u yoki bu shevaning o'ziga xos leksik, frazeologik, fonetik, morfologik so'z yasash, sintaktik xususiyatlari dialektizmlar deb ta'riflanadi. Ozarbayjon tilshunosi Mirzaqulov B. ham shunga yaqin fikrni olg'a surgan.

Vetvinskiy V va Mirzaqulovlar dialektizmlarga ta'rif berishda faqat badiiy asar tilida uchraydigan hodisalarnigina hisobga olgan ko'rinadi. Rus tilshunosi Proxorova V.N bu masalaga ancha aniq ta'rif bergan. "Lingvistika va adabiyotshunoslikda dialektizm termini mavjud, ya'ni ular mahalliy dialektlardan o'zlashtirilgan va adabiy til sostavida qo'llaniladigan so'zlardir."

Demak, dialektizm terminining ma'nosi faqat adabiy tilni o'rganish va adabiy tilni dialektlar bilan taqqoslash jarayonida ochilishi mumkin.

O'zbek tilshunosligida dialektizmlarga berilgan ta'riflar nazariy jihatdan juda to'g'ridir. Akademik Shoabdurahmonov Sh.Sh umumxalq tilining mahalliy ko'rinishlari yoki unda qo'llaniladigan til hodisalari dialektizmlar ekanligini ko'rsatgan. Badiiy asarlarda uchraydigan dialektizmlar haqida maxsus tadqiqot olib borgan o'zbek tilshunos olimi B. Fayzullayev masalani juda oydinlashtirgan. U aytadiki: "Dialektizmlarni olimlar turlicha ta'riflashgan. Ayrim sabablarga ko'ra va ma'lum maqsadlarni o'ylab adabiy til tarkibida qo'llaniladigan, unda ma'lum vazifani bajaradigan, alohida dialekt va mahalliy shevalarning fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan so'z va so'z birikmalari dialektizmlardir"

3.2. Dialektizmlarning badiiy asarlarda qo‘llanilishi va ishlatish maqsadlari

Badiiy asarlarda dialektizmlarning qo‘llanilishi sabablarini quyidagicha izohlash shu sohada ish olib borgan tadqiqotchilarning ishlarida keng ifoda qilingan²⁴.

1. Umuman dialektizmlarning turli xil ko‘rinishlari badiiy asarlar tilida tez-tez uchrab turadi. Tadqiqotchilarning fikricha, atoqli o‘zbek yozuvchilari va shoirlaridan Oybek, A.Qahhor, G’.G’ulom, Sh.Rashidov, A.Muxtor, P.Qodirov, Tog‘ay Murod, Sh.Xolmirzayev, U.Azim va boshqalar o‘z asarlarida xalqning jonli so‘zlashuv nutqiga – dialektizmlarga tez-tez murojaat qilib turadilar.

2. Jonli shevalar yozma yodgorliklarda, shuningdek, o‘zbek adabiy tilida ham uchramaydigan ayrim grammatik formalar, leksik elementlarni saqlab qolganki, ularni asosli ravishda o‘rganish juda muhim tarixiy lingvistik xulosalarni chiqarishga imkon beradi, qat’iy bir qonuniyat asosida tilning qadim zamonlardagi holatini aniqlashga tekshiruvchiga qimmatli material beradi, shuning bilan birga shunga o‘xshash leksik-grammatik hodisalar yozuvchilarning tarixiy mavzularga bag‘ishlangan badiiy asarlarga juda qo‘l keladi.²⁵

3. Yozuvchi ma’lum bir yashovchi xalq turmushini va u bilan bog‘liq narsalarni aniq tasvirlash maqsadida shunday so‘zlardan o‘rni bilan foydalanadi. Bunday so‘zlar ayrim shevalarda bo‘lsa ham boshqa shevalarda uchramasligi mumkin. Masalan yozuvchi I. Rahim “Chin muhabbat” asarida bolish so‘zini Andijon shevasidan olib ishlatgan, jumlaning aynan keltiramiz:

“Guzarda so‘riga gilam solib par bolish yonboshlab o‘tirgan Bozorov kampirga gap tashladi”. Bolish so‘zi adabiy tilda yostiqni anglatadi. Bolish so‘zi Sh.Xolmirzayev asalarida ham shu ma’noda qo‘llanilgan, Surxondaryo shevalarida ham bolish so‘zi Andijon shevasidek ma’noni ifodalaydi va anglatadi.

4. O‘zbek shevalarida bir qator so‘zlar mavjudki, ular adabiy tildagi so‘z bilan baqamti ravishda qo‘llaniladi. Shulardan biri hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun norma

²⁴ Шоабдурахмонов Ш.Ш «Ўбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари, Тошкент, 1961,202-220-б»

²⁵ Файзуллаев Б.” Дialeктизмлар ва уларнинг бadiий адабиётдаги ўрни”, “Ўзбек адабиёти ва тили” журнали, Тошкент,1977,4-сон

bo‘lib qo‘llanilishi kerak. Masalan, jarqanat / yarqanat (ko‘rshapalak), nuri / go‘ng (o‘g‘it), adrasman / hazarispan / ispan (isiriq), girdikapa / yakandaz/ girdixona (ko‘rpacha), kasa / taba / chini (chinni kosa), ikqat / buvoz / boshqorong‘I / bo‘g‘oz (homilador), shoti / narvon / zangi(narvon), chinachaq / chimchiloq / chinaqay / buvak(jimjimaloq), xalganchak / xayunchak(arg‘imchoq).

Ko‘pgina yozuvchilarning asarlarida bunday so‘zlarni bir vaqtda parallel ravishda qo‘llanilishini ko‘rish mumkin.

5. Shunday leksik yoki frazeologik hodisalar borki, hali hanuz ulardan adabiy variant ajralib chiqmagan va ularni dilektal variantga nisbatan zid qo‘yib bo‘lmaydi. Masalan, o‘g‘ir- keli.

“O‘zagi o‘g‘ir sonidan yo‘g‘onroq tolning o‘zi xam mana endi qurib yarim tirik, yarim o‘lik bo‘lib qoldi” (M.Ismoilijiy”Farg‘ona tong otguncha”1-kitob, 45-bet).

U kelida nimanidir gursillatib tuyar edi. Sh.Xolmirzayev.

Adabiy til tarkibida uchraydigan bunday so‘zlardan tanlash yo‘li bilan, ya‘ni xududiy jihatdan keng tarqalganini adabiy mezon darajasiga ko‘tarish ma‘quldir.

6. Badiiy asarlar tilidagi dialektizmning uchrashi yozuvchi yoki shoirning ma‘lum bir dialektning vakili ekanini ko‘rsatib turadi. Albatta, bu hal qiluvchi omil emas. Chunki badiiy asarlar tiliga kiritiladigan dialektal xodisalar ayrim sabablarga ko‘ragina emas, balki yozuvchi tomonidan ongli ravishda ham kiritiladi, bu esa yozuvchiga voqea-hodisani haqqoniy tasvirlash uchun yordam beradi va asar g‘oyasini chuqurroq ochishida ma‘lum vazifalarini bajarishi mumkin. Shunday xulosa bo‘ladiki, badiiy asarlar tilida dialektizmlarning uchrab turishi stixiyali hal bo‘lmay, balki ma‘lum bir qonuniyat yoki sabablar bilan belgilanadi.

Dialektizmlarning badiiy asarlar tilida qanday maqsadlar haqida tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanida turlicha qarashlar mavjud. Masalan, rus tilshunosi Vetvinskiy V.G “Mahalliy koloritni yaratish - bu tipik voqealarni to‘g‘ri tasvirlashning bir badiiy vositasidir”, - deb ko‘rsatadi.

Akademik Shoabdurahmonov Sh.Sh ilmiy izlanishlarida “Dialektal so‘zlar badiiy asarlarda ham qo‘llanilishi ya‘ni joy koloriti, personajlar tili xususiyatlari,

nihoyat rang-barangligini ta'minlash uchun ham qo'llanilmog'i lozim",- deb ko'rsatiladi.

Shu nuqtayi nazardan qaralsa, dialektizmlarning badiiy asarlar tilida ishlatilishining maqsadlarini quyidagicha izohlash mumkin.

1. Dialektizmlarning joy koloriti va mahalliy joy hayotini, undagi shaxslar nutqini ochishda katta ahamiyatga ega. Yozuvchi asar personajlari nutqining joyga nisbatan tildagi mosligini ochishda, o'sha hududning tabiiy sharoitini, relyefi va turmush tarzini tasvirlashda bunday so'zlardan o'rni bilan foydalaniladi.

Chunki ma'lum bir xalqning turmush psixologiyasi (an'analari, urf-odatlar, estetik qarashlari, qiziqishi, san'ati, madaniyati) va ular bilan bog'liq bo'lgan leksik boyligi asrlar davomida yuzaga keladi, bularsiz shu xalq haqida yaxshi va to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin emasligi bilan izohlanadi.

Mahalliy kalorit belgilari, ayniqsa, ma'lum bir hududda yashovchi kishilarning nutqida, leksikasida yaxshi aks etadi, shu sababli biror mahalliy tushuncha dialektal so'z badiiy asarda tasvirlanayotgan voqea uchun ahamiyatli bo'lgan holatning ma'lum bir mahalliy belgisini bildirsa, u holda bunday so'zlarning badiiy asarlar tilida qo'llanilishi o'rinlidir.

2. Shu narsa ayonki, badiiy asarda xarakter yaratish asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Odamzod yashayotgan muhit, uning ruhiyati, dunyoqarashi, o'ziga xos so'zlash uslubini ifoda uslubini ifoda etmasdan aniqlikka erishib bo'lmaydi.

Shu sababli badiiy asarda har bir personajning o'ziga xos individual nutqida berish katta ahamiyat kasb etadi.

Chunki, xarakter tilda ham aks etadi. Dialektizmlar esa mana shu o'rinda, ya'ni personajning individual nutqini yaratishda yozuvchi uchun asosiy manba hisoblanadi.

Yozuvchi ma'lum bir davrdagi hayot voqealarini tasvirlar ekan, shu davr kishilarining dunyoqarashi, ruhiyatini haqqoniy tasvirlashda eng muhimi xarakterlarini ochishda har bir personajning o'ziga xos nutqini beradiki, bunday paytda u dialektizmlardan foydalanadi. Yozuvchi Sh. Xolmirzayev o'zining barcha

asarlarida, chunonchi, “Qora kamar”, “So‘nggi bekat” kabi yirik prozaik asarlarida Surxondaryoning mahalliy kaloritini ifodalashda dialektizmlarni juda ustalik bilan qo‘llay olgan. Keyingi o‘rinlarda misollar berilgan.

3. Badiiy asarning xalqchilligini ta‘minlash va uni bo‘rttirishga adabiy va xalq tilini bir-biriga yaqinlashtirishda dialektizmlarning o‘rni bor.

Badiiy asarning o‘qimishli bo‘lishi yozuvchi o‘z asarlarida xalq tili boyligidan qanday darajada foydalanganligi, asar tilining keng xalq ommasiga tushunarli, sodda va mazmundor yozilganligi, xalq maqol va iboralardan, dialektizmlardan o‘rinli foydalanganligi bilan ham belgilanadi.

Shu ma‘noda yozuvchi Sh. Xolmirzayevning asarlari o‘ziga xos hususiyatlarga egadir. Chunki adib asarlarida xalqchilik, undagi dialektizmlarning uslubiy jihatdan mahalliy kaloritni birlik uchun to‘g‘ri qo‘llanganligidir.

4. Shuni alohida aytish kerakki, dialektal so‘zlarning adabiy til tarkibiga kirishida, uning lug‘at fondidan joy olishida badiiy asarlar juda katta o‘rin tutadi. Chunki xalq leksikasi adabiy tilga asosan badiiy asarlar orqali kirib keladi. O‘z navbatida badiiy til ham har tomonlama shevalarga faol ta‘sir ko‘rsatib turadi, lekin shevalar ham adabiy til uchun zaruriy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, milliy til tarkibida dialektlar saqlanib qolar ekan, ular hamma vaqt bir-birini boyitib va to‘ldirib boradi²⁶. Shuning uchun ham ayrim olimlar tomonidan ilgari surilgan va surilayotgan dialektlar hozirgi kunda adabiy til va uning rivojlanishiga hech bir ta‘sir qilmaydi degan fikrlariga unchalik ham qo‘shilib bo‘lmaydi. Balki rus tilshunosi Ojegov S.I fikricha, aytilgan umumxalq tili uning adabiy shakli uning lug‘at fondining boyligiga va grammatik jihatdan normallashtirishiga qaramasdan sheva tilning mag‘zini, shirasini o‘ziga qabul qilishini davom ettiradi.²⁷

Dialektizmlar badiiy asarlar tilga ayrim sabablar natijasidagina emas, balki aniq maqsadga yo‘naltirilgan holda asarda ma‘lum bir vazifani bajaradi.

²⁶ Файзуллаев Б Дialektizmlar va ularning badiiy asardaги ўрни. “Ўзбек тили ва адабиёти” журналі, 1977, 4-сон, 36-бет

²⁷ Ожегов С.Н Основные черты развития русского языка. Известия АН. Отд литературы и языка, том I Москва 1951, 29-30с

Bundan tashqari, dialektizmlar badiiy asar tilida stilistik rang-baranglikni ta'minlash, nutqning emotsionalligini oshirish, tarixiy va joy koloritini yaratish, asar tilining sinonimik qatorini boyitish va shu kabi bir qancha vazifani bajaradiki, bular kontekstdan ma'lum bo'ladi, ya'ni har bir dialektal so'z va iborani o'z kontekstida tekshirganimizdagina uning qanday vazifani bajarayotganini bilamiz.

Dialektizmlar badiiy asarda o'rinli qo'llangan taqdiridagina asar g'oyasini boyitishda, yoritishda, voqeiylikni haqqoniy tasvirlashda yozuvchiga xizmat qilishi mumkin.

Lekin badiiy asar dialektizmlardan ortiqcha foydalanish yoki o'rinsiz ishlatish asar tiliga putur yetkazadi, uni til jihatdan qashshoqlashish, xiralashishga olib keladi.

Yuqorida qayd etilganidek, yozuvchi asarlarida qo'llanilgan ana shu qatlamlar xususida fikr yuritish, san'atkorning ma'lum ma'nodagi badiiy talantini ham aniqlashga yordam beradi.

Dialektizmlar umumxalq tilining ajralmas bir qismi bo'lib, asosan jonli so'zlashuv nutqiga xos leksemalar hisoblansa-da, ulardan badiiy adabiyot tilida foydalanishga ham e'tibor qaratiladi.

Ko'pgina tilshunoslikka oid tadqiqotlarda, dialektizmlarni umumxalq doirasidagi nutq turi doirasida ham qaratilib kelingan va til normasiga mos kelmasligi tufayli adabiy nutqda chegaralangan holatlarda qo'llanilishi haqida fikrlar yuritilgan.

Odatda, dialektizmlardan foydalanish orqali san'atkorlar, personajlar nutqini individuallashtiradi, mahalliy kolorit nutqini tahlil etadi va qahramonlari tasvirini chizib berish uchun ham ularga qo'llashga e'tiborni qaratadi. Shu bilan birga, dialektal so'z va iboralardan foydalanishda chegara bo'lishi, nutqda bo'lmaslik haqida qayg'urishi lozim.

Binobarin, badiiy asar tilida uchraydigan dialektizmlarni o'rganish orqali har bir san'atkorning umumxalq tili boyligidan qanday, qay holatda, nima maqsadda foydalanganini, uning talanti va mahoratiga qarab o'rganamiz. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, Sh. Xolmirzayev badiiy talanti va oqilona foydalanish jarayonida yanada yaqqol seziladi.

Yozuvchi har bir asari tilining xalqchil bo‘lishini ta’minlash personajlar nutqini individuallashtiradi, ayni paytda mahalliy kolorit nutqini tipiklashtirish maqsadida ham dialektizmlardan foydalanishga e’tiborini qaratadi. Chunki dialektizmlar badiiy adabiyot tilida turli xil vazifalarni bajarishi mumkin. Bu bevosita yozuvchi asarlari dunyosiga singib ketganligi tufayli ham ijodi shu alfozda ko‘rkamlashib boradi. Quyida berilgan matnlar orqali dialektizmlarni yozuvchi ijodida turli maqsad va vazifalarni hal etish uchun ham qo‘llanilganini ko‘zdan kechiramiz.

-Bo‘pti. Sizlar kirib chiqinglar. Men kutib turaman. Keyin bir-bir maslahat qilamizda. Menga ishonasizlarmi? (“So‘nggi bekat”)

-Bu qanaqasi bo‘ldi? - dedi Munira, - Rossiyaning bir burchagini ko‘tarib opkelganmisizlar (“ So‘nggi bekat”²¹)

-Shunaqa bo‘lib qoldi, inim, - dedi u kishi, - oqshom mahali endi Termizdan kelib o‘tirgan edim.

-Ha, uka, ollo ko‘p ko‘rdi Saidbekni... (“Og‘ir tosh ko‘chsa”)

Keltirilgan misollar orqali yozuvchining dialektal so‘zlardan turli maqsadlarni tasvir etish maqsadida qo‘llanilganini ko‘ramiz. Avvalo, bo‘pti / xo‘p, opkelganmisizlar / olib kelganmisizlar, shunaqa / shunday, inim / og‘am, mahal / payt dialektal so‘z va iboralari matni bezab turadi. Ta’kidlash joizki, bu kabi dialektizmlar garchand badiiy nutqqa xos bo‘lmasa-da, ulardan anglashilayotgan tasvirlarda turli xil ma’no ottenkalari aks etib turishi tabiiydir.

3.3. Sh.Xolmirzayev asarlari tilida ishlatilgan dialektizmlarning turlari va ularning uslubiy qo‘llanilishi

Dialektizmlarning turli xil ko‘rinishlari va ularning turlarini o‘zbek adabiyotida yaratilgan badiiy asarlar tilida, xalq tilida elementlari (imkoniyatlariga) dialektizmlarga tez-tez murojaat qilib turadi. Yozuvchining “Qora kamar”, “Qil ko‘prik” kabi asarlari Surxondaryo viloyati atrofida bo‘lib o‘tgan voqealarni aks etishi bilan birga shu hududda yashovchi aholi nutqiga xos xususiyatlarni ifoda etishi bilan ajralib turadi. Bizning tekshirish obyektimiz uchta qilib olingan.

Yozuvchi Sh.Xolmirzayevning uchta yirik asarida dialektizmlarning quyidagi turlari uchradi.

1. Fonetik dialektizmlar²⁸. Bunday dialektizmlar shevadagi soʻz bilan adabiy tildagi soʻzning talaffuzida, urgʻuda, fonema sostavida, ularning oʻrinlashuvida, soni va boshqa jihatlari bilan farqlanadi. Masalan: Allagʻaytib bir kepsiz. Borasiz-da, bolam. (kepsiz-kelibsiz. “Ogʻir tosh koʻchsa” 20-bet)

Borsam, sob boʻp qolgan va h.

Shukur Xolmirzayevning “Ogʻir tosh koʻchsa” asarida ellikka yaqin fonetik dialektizmlar qoʻllangan va ular uslubiy jihatdan mahalliy aholi nutqiga xos xususiyatlarni ifodalagan.

2. Leksik dialektizmlar²⁹ faqat shevagagina xos boʻlib, adabiy tilda uchramaydigan soʻzlar boʻlib, badiiy asar tili uchun juda ham xarakterlidir. Chunki bunday soʻzlar hozirgi paytda jonli xalq shevalarida saqlanib qolgan, lekin hozirgi adabiy tilda uchramasligi, uchrasa ham boshqa semantik xususiyatga ega boʻlish mumkin³⁰. Yozuvchi Sh. Xolmirzayev oʻz asarlari tilida leksik dialektizmlarni qoʻllashga alohida eʼtibor bergan.

“Ogʻir tosh koʻchsa” asaridan olingan misollarga qaraylik:

Keyin ikki satilni koʻtarib suv olib kelgani Koʻk buloqqa ketdi.(satil/chelak)

Qiz oʻrnidan turdi, keragaga roʻpara boʻldi.(keraga-uy qurilmasi)

Yengini shimarib sirli karsonni chiqarib yuvdi. (karson/xamir qoriydigan katta tovoq)

Xohlasam, checha deyman. (checha-yanga)

Tagʻin oʻzing yurgich boʻlib chiqma.(tagʻin-yana)

Biroq qaytib kelgan kuni kimsasiz bozorga kirib, huvillab yotgan rastalarni ichki bir mamnuniyat bilan aylanib koʻrarkan, bozor adogʻidagi kichkina daricha qattiq itarilib ketdi. Bu gapda oxir maʼnosini bildiruvchi adoq soʻzi ishlatilgan. Qadimgi yozuv manbalarida ham adaq-oxir, tamom maʼnosida qoʻllanilgan.

²⁸ Буларни И. Балашша ва Д.Г Киевбоевлар вариант сўзлар ёки сингормоник параллелизмлар деб атайдилар. И.Балашша, Венгерский язык Москва,1951 стр.5

²⁹ Ф. Абдуллаев “Диалектал луғат” ЎЗГА.1966

³⁰ А.Ғуломов. Диалектал луғат ҳақида.Тошкент,1968, №14-б

E, issiq jon, Olloyim (Ollohim bo‘lishi kerak) sevgan quliga kasal berar ekan, inim.(inim-uka)

O‘qishdan ham guppa yiqilib kelibsiz deb eshitdim. (guppa-butunlay ma’nosida)

Zebo shaharga qatnaydigan avtobusga o‘tirar, avtobus qorga burkangan qishloqdan chiqib biyday dala yo‘liga tushgan, yo‘lning adoqlari oqarib, tumanlashib ko‘rinadi. (biyday- tekis ma’nosida).

Adib o‘z asarlarida leksik dialektizmlardan unumli foydalangan. Masalan, “So‘nggi bekat” asarida yuzdan ortiq, “Qil ko‘prik ” romanida ellik beshta, “Og‘ir tosh ko‘chsa” asarida o‘ttiz yettita leksik dialektizmlar uchraydi.. bunday dialektizmlarning bir qismi adabiy tilda ham boshqa shevalarda g‘am uchramaydi yoki boshqa so‘zlar orqali ifodalanadi.

Ushbu asarlarda ishlatilgan leksik dialektizmlarning bir qanchasi adabiy tilda qo‘llanilmaydi yoki ulardan bir qismining adabiy tilda ekvivalenti uchun ajratib olinmagan yoki adabiy tilda baravar qo‘llanilaveradi.

3. Semantik dialektizmlar.

Bunday so‘zlar shevada ham, adabiy tilda ham bor bo‘lib, ma’no jihatdan adabiy tildan farq qiladi, bunday so‘zlarni professor A.G‘ulomov, F.A Abdullayevlar semantik dialektizmlar deb atasa³¹, professor Sh.Shoabdurahmonov dialektizm ma’no deb talqin etadi.³² Har ikkala holda ham shevadagi so‘z bilan adabiy tildagi so‘z fonetik shakli jihatdan teng (o‘xshash) kelsa ham ma’no jihatdan farq qiladi.

Adibning “So‘nggi bekat”, “Qil ko‘prik” asarlarida ham semantik dialektizmlar ishlatilganligini ko‘ramiz. Masalan, o‘zi tagiyam bitta bo‘lgan bo‘lsa kerakda. Bu gapdagi tagi so‘zi urug‘ ma’nosida qo‘llanilgan, shevada ham shu ma’noni ifodalaydi.

So‘ng mehmonga betlandi.(qaramoq ma’nosida)

Mana shu chivinni olaylik. Munira opa, shu chivin ham kerak ekan-da. (“So‘nggi bekat”, 46-bet). Chivin adabiy tilda bir ma’nosi bilan to‘g‘ri kelsa,

³¹ Гуломов А Дialeктал луғат ҳақида, “Ўзбек тили ва адабиёти”, №4,13-б

³² Шоабдурахмонов Ш Ўзбек диалектологияси. Тошкент.1969й, 30б

pashsha ma'nosi bilan farqlanadi. Semantik dialektizmlarni xarakterlovchi belgilar ham bor. Masalan, omonimiyadagi ayirmalıklar: Qora - adabiy tilda rang ma'nosida; Surxondaryo shevalarida qora-qarovchi, bosh, ega; qora- qiz to'yiga yuboriladigan qora mol; qora- pada kabi ma'nolarni ifodalaydi; Et - go'sht, badan: eti yaxshi ; Toshkent shevalarida et-aytmoq; 2) qilmoq (yuragi shuv etdi) 3) go'sht 4) eltmoq

Polisemiya bilan omonimiyaning munosabati jihatidan shevalardan har xillilik bo'lishi mumkin. Lekin bir-biri bilan tarixiy tomondan bog'lanadigan bu ikki hodisani farqlashda ham ba'zi noaniqliklar bor.

Masalan, chiq: 1) tomga chiqdi 2) Eridan chiqdi(ajralish) 3) Shudring – ertalabdan chiq tushdi. (Surxondaryo shevalarida) 4. Chigit unib chiqdi 5) Labiga uchuq chiqdi. 6) O't chiqdi.

Sinonimiyadagi ayrimliklar: hidla - iska (Surxondaryo shevalarida) keli - o'g'ir (oldingisi qo'llaniladi), qora kishmish(uzum navi). Yangi – toza, adog' - adoq. Pul - axcha, satil – paqir - chelak bunday so'zlar shevalararo va adabiy til bilan sinonimik farqliklarga ega. So'ng ildamlab qo'radan chiqdi-da, o'choq boshidan xokandozni olib, kapaga o'tdi. Qo'ra - bu yerda mol qamaydigan joy, bundan tashqari, cho'g' qoldig'i, ko'nargi, tomizg'i ma'nolarini ifodalaydi.

Morfemalarning ajralish-ajralmasligi nuqtayi nazardan ham ayirmalıklar bo'ladi. Solishtiraylik: yengcha (Qo'qon: yengsa / jengsa-Surxondaryoda)

Bob bo'yicha xulosalar

– Shukur Xolmirzayev xalqning og'zaki nutqiga xos bo'lgan ko'plab lug'aviy vositalardan foydalanib o'z asarlari tilini xalqona bo'lishiga erishadi.

– Yozuvchi ijodiga xos og'zaki nutq vositalari adabiy tilga xosligi bilan xarakterlanadi;

– Emosiyani qo'zg'atishi nutqtayi nazaridan ham o'ziga xoslik kasb etadi.

-O'z asarlarida dialektizmning turlaridan oqilona foydalangan. Bu esa asarlari tiliga o'zgacha joziba baxsh etib turibdi.

-Dialektizmlar adabiy tilning sekin-asta boyib borishiga yordam beradi. Bunda esa yozuvchilarning o'rni beqiyosdir

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev hikoyalarida og‘zaki nutq vositalari talaygina bo‘lib, ularni keng planda amalga oshirish galdagi vazifalar sirasiga kiradi.

UMUMIY XULOSALAR

Badiiy asar tilini o‘rganish tom ma’noda har bir yozuvchining badiiy talanti, uning iqtidori va so‘z tanlash hamda qo‘llashdagi individual mahoratini aniqlash

barobaridadir. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, Shukur Xolmirzayev ijodini o'rganish uning badiiy talanti va mahorati nechog'lik yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Avvalambor, Shukur Xolmirzayev nihoyatda o'tkir did va zehnga ega bo'lgan ijodkordir. Uning har bir asarini o'qigan kitobxon olam-olam shodlik va limmo-lim quvonchga to'ladi. Yozuvchining asarlari dunyosidagi o'ziga xos ijodiy teranlik, yetuklik sirlaridan voqif bo'ladi.

Shukur Xolmirzayevning ana shunday teran so'z sohibi bo'lishi, uning ulkan san'atkorga aylanishida, shubhasiz, ijod sahifalari sabab bo'lgan. Yozuvchi asarlari tilini, xususan, hikoyalari badiiy til sirlarini o'rganish jarayonida shu narsaga amin bo'lamizki, muallif umumxalq o'zbek tili imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanadi va har bir asari tilini pishiq, ixcham, mukammal bo'lishiga erishadi. Xususan, yozuvchi o'zbek tili lug'aviy va uslubiy imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Bu, shubhasiz, Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilining jozibador, ohangdor hamda ta'sirchan bo'lishini ta'minlagan.

Shukur Xolmirzayev o'zbek tili tasviriy vositalaridan, jumladan, o'xshatish, sifatlash, metafora, badiiy takrorlardan imkon qadar foydalanishga e'tibor qaratadi. Pirovardida asarlari tilining serbo'yoq va serjilo bo'lishiga erishgan.

Ma'lumki, Shukur Xolmirzayev xalq tiliga ko'plab murojaat etadi, xalqona ohang va xalqchil yondoshuv muallif asarlari tilini har tomonlama go'zal va nafis bo'lishini ta'minlaydi.

Yozuvchi hikoyalari tilida og'zaki nutqqa xos bo'lgan vositalar talaygina ekanligi bilan xarakterlanadi.

Odatda, og'zaki nutq vositalari tilning shunday bir ko'rinishiki, ular adabiy til va uning normalariga deyarli mos kelmas ekan, biroq ayrim og'zaki nutq vositalari badiiy til uchun xarakterli jihatlarni yoritib berishga xizmat qiladi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilini o'rganish tom ma'noda ijodkorning badiiy talant va iqtidorini aniqlash imkonini beradi. Vaholanki, yozuvchi mahoratini belgilovchi omillar talaygina. Yuqoridagi fikr-mulohazalarga tayangan holda quyidagi umumlashmalarga kelindi:

1. Shukur Xolmirzayev umumxalq o‘zbek til imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanadi. Shubhasiz, bu jarayon yozuvchi asarlari tilining rang-barangligini ta’minlashga xizmat qilgan.

2. Shukur Xolmirzayev har bir so‘zdan, so‘z vositasidan unumli va o‘rinli hamda maqsadga muvofiq foydalanadi. Shubhasiz, bu jarayon muallif hikoyalari tilini sodda, ravon, qisqa, ixcham va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi

3. Shukur Xolmirzayev o‘zbek tili tasviriy vositalarini ishlatishga alohida ahamiyat beradi, shuning uchun ham asarlari tili badiiy ko‘lamdorlik nuqtayi nazaridan ko‘tarinkilik, tantanavorlik ruhi bilan sug‘orilgan.

4. Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilini xalqchil bo‘lishini ta’minlashda og‘zaki nutq vositalarining alohida o‘rni bor. Chunki yozuvchi jonli so‘zlashuv til vositalarini ishlatishga alohida ahamiyat beradi. O‘z navbatida og‘zaki nutq vositalari muallif asarlari tilining xalqona bo‘lishiga zamin yaratadi.

Shunday qilib, Shukur Xolmirzayev mohir so‘z ustasi sifatida umumxalq o‘zbek tili imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanadi. Bu esa asarlari tilining serjilo, serbo‘yoq bo‘lishiga imkoniyat yaratgan. Xususan, hikoyalari tili har tomonlama aniq, puxta, ixchamligi bilan xarakterlanadi. Ayni zamonda, yozuvchining o‘tkir so‘z sohibi ekanligi shu orqali aniqlanadi. Umuman olganda, yozuvchi hikoyalari tilini bundan-da keng va atroflicha o‘rganish lozim. Ta’kidlash joizki, f.f.n. R.Normurodov “Shukur Xolmirzayevning badiiy mahorati” nomli monografiyasi bilan Shukur Xolmirzayev hikoyalari lingvopoetikasi tahlili borasida izlanishlar olib borganlar. Bu izlanishlar natijasida adib asarlari tilining naqadar shirali, ravon, yoqimli hamda ta’sirchan ekanligining guvohi bo‘lamiz. Shunga ko‘ra yozuvchi hikoyalari tilining nozik qirralarini o‘rganish galdagi vazifalar sirasiga kirishi lozim.

Xulosa shuki, Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilini alohida planda amalga oshirish o‘zbek tilshunosligi va tilshunos olimlari oldida turgan vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha “**Harakatlar strategiyasi**” to‘g‘risidagi farmoni. (“Xalq so‘zi” 2017 yil, 8 fevral).
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq forovonligining garovi. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
6. Abdurahmonov X, Mahmudov N. So'z estetikasi. –T, 1981. – B.18.
7. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – T, 1982 – B.15.
8. Ashirboyev S. Strukturno - Semayenticheskiye osobennosti prostogo predlozheniya v prozaicheskix proizvideniyax Alishera Navoi. Tashkent, 1990-51- bet
9. Aytboyev D. O'zbek tilidagi perifrazalarning motivlashuvi va leksikografik talqini. Filol. fanlari. nomz. diss... avtoref. – T., 2007, – B. 26,
10. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi (o'zbek she'riyati poetikasidan saboqlar). – T, 1996. – B. 229.
11. Gorbachevich K. Norma sovremennogo russkogo literaturnogo yazyka. – Moskva: Nauka, 1978. S. 243.
12. Djalolova L. Abdulla Qodiriyning “O'tgan kunlar” romanining lingvistik tadqiqi. Filol. fanlari. nomz. diss..avtoref. – T, 2007.
13. Yo'ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. – Samarqand, 1982.
14. Yo'ldoshev M. Cho'lponning badiiy til mahorati (“Kecha va kunduz” romanining tili misolida) Filol. fanlari. nomz. dissertasiyasi. – T, 2000,
15. Yo'ldoshev M. Badiiy nutq lingvopoetikasi. Monografiya. – T: Fan, 2008. – 159.b,
16. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari.– Samarqand., 1994. – B. 30.
17. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. Filol. fanlari. d-ri. diss..avtoref. – T, 1993.
18. Lapasov J. Matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. B. 8-11.

19. Mahmudov N. Abdulla Qahhor hikoyalarning lingvopoetikasiga doir. // O'zbek tili va adabiyoti, 1987.№4. – B.34-36.
20. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi.- Toshkent: O'qituvchi, 1976.-354
21. Mirtojdiyev M O'zbek tilida polisemiya.-Toshkent: Fan, 1974.-B 9,26, 33, 71
22. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri - 90-yillarning boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi: Filol. fanlari. nomz. diss. avtoref. – T, 2004,
23. Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish. – T,1978,
24. Normurodov R. Shukur Xolmirzayevning badiiy til mahorati. Filol. fanlari. nomz. dissertatsiyasi. – T, 2001.
25. Normurodov R. Shukur Xolmirzayevning badiiy mahorati. Monografiya. – T, 2003.
26. Normurodov R. O'zbek tilida ikkilamchi nominasiya. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2010, – 129.b.
27. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki. - T, 1970. – B.43.
28. Samadov Q. Oybekning til mahorati. – T, 1981.
29. To'rabekova S. Til va uslub. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – B.40-45.
30. Umirov I. O'zbek tili parafrazalari. Filol. fanlari. nomz. diss... avtoref. – T, 1996.
31. Choriyeva Z. Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidagi maktublarning lug'aviy-ma'noviy va uslubiy xususiyatlari. Filol. fanlari. nomz. diss..avtoref. – T, 2006.
32. Shamsiddinov H. Perifraza xususida ba'zi bir mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti, 1993, №4, 31-35-betlar.
33. Shamsiddinov H. O'zbek tilida so'zlarning funksional-semantik sinonimlari. Filol. fanlari. d-ri. diss... avtoref.– T., 1999.
34. Shomaqsudov A. va b. O'zbek tili stilistikasi. - T, 1983.
35. Shodiyeva D. Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi: Filol. fanlari. nomz. diss..avtoref. – T, 2007.
36. O'rinboyev Z. Lingvisticheskaya priroda reduplikatsiy v sovremenno uzbekskom yazыke. Avtoref. kanl. filol... nauk. – T,1982.
37. Qahhorova Q. Chorak asr hamnafas. – T, 1987.

38. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – Toshkent: Fan, 1982. – B.10b.
39. Qodirov P. Xalq tili va realistik proza. – Toshkent: Fan, 1973. – B.27.
40. Qo‘chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. – T, 1975.
41. Qo‘chqortoyev I. Frazeologicheskiye novatorstva Abdulla Kaxxara: Avtoref. kand. filol... nauk. – T, 1968.
42. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – T, 1977.